

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

"OLTINKON" –
PROFESSIONALLAR
TAYYORLANADIGAN
MARKAZ

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan ● 2023-yil 22-sentabr, №38 (3048)



BIZ
HAQIMIZDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

@vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya



www.mv-vatanparvar.uz

4-5

JANGOVAR
TAYYORGARLIKDA
YANGICHA
YONDASHUV



6

MEN NECHUN
SEVAMAN
O'ZBEKISTONNI?!



Vatan bilan tirkimiz,
Vatan bilan buyukmiz!

12

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 78-SESSIYASIDAGI NUTQI

Hurmatli rais janoblari!

Hurmatli Bosh kotib janoblari, delegatsiyalar rahbarlari, xonimlar va janoblar!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining bugungi sessiyasi xalqaro munosabatlar tizimida fundamental o'zgarishlar yuz berayotgan bir sharoitda bo'lib o'tmoqda.

Jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilmogda. Global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi muammolar va xalqaro huquq me'yordan chekinish kuchaymoqda. Va bularning barchasi keng ko'lamdag keksinlik ortishiga sabab bo'lmoxda.

Geosiyosiy qarama-qarshiliklar tufayli savdo, investitsiya va innovatsiya sohalarida erkin almashtirish yo'lida yangi to'siqlar vujudga kelmoqda. Hatto iqlim o'zgarishlari, ochlik va tengsizlikka qarshi kurash singari butun bashariyat taqdiringa daxldor bo'lgan masalalarda ham o'zaro muloqot izdan chiqqani sezilmoxda.

Bunday murakkab sharoitda amaliy hamjihatlik va hamkorlik ruhini saqlash, umumi manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo'ygan holda, mamlakatlarni jipslashtirish g'oyasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Biz o'tgan yili umumiy xavfsizlik va tarraqqiyotga qaratilgan "Samarqand birdamlik tashabbusi"ni ilgari surdik. Asosiy maqsadimiz mamlakatlarimiz va xalqlarimizning bugungi kuni va istiqboli uchun mas'uliyatni har tomonlama chuqur anglash, ochiq va konstruktiv hamkorlikka tayyor barcha tomonlarni global muloqotga jalb qilishdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusi bilan kelgusi yil Kelajak sammiti o'tkazilishi xalqaro va mintaqaviy tarraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishga, Tashkilotimizning ta'siri va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Muhtaram anjuman ishtirokchilar!

Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz "Inson qadri va manfaatlari uchun" degan ezgu g'oya asosida demokratiya vaadolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil ilgari bormoqda.

Joriy yil aprel oyida milliy tarraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi yangilangan Konstitutsiya bo'yicha O'zbekiston tarixida birinchi marta umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. Referendumda ovoz berganlarning 90 foizdan ziyodi ushbu chinakam xalq Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatldi. Shu taripa islohotlarimizning ortga qaytmaydigan muqarrar tus olishi ta'minlandi.

Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat' nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik.

Mana shunday huquqiy asosda "O'zbekiston – 2030" tarraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojanish maqsadlariga uyg'un bo'lib, biz o'z zimmamizga oigan barcha majburiyatlarini to'la va qat'iy bajarmoqdamiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Izchil davom etayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti, global tahdidlarga qaramasdan, barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. So'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim martadan ortiq ko'paydi. Bizning

bosh maqsadimiz 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir.

Iqtisodiyotimizi liberallashtirish yo'lida yana bir ustuvor vazifamiz yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lishdir.

Xalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag'allik ikki barobarga kamaydi. Biz 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirishni reja qilganmiz. Aholini ichimlik suvi, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash ko'lamini bir necha bor oshirishni belgilaganmiz.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinnarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori" borasidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlaymiz. Mazkur tashabbus doirasida tajriba almashish uchun 2024-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidagi "Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo'i" butunjahon konferensiyasini yurtimizda o'tkazishni taklif etaman.

Hurmatli sammit ishtirokchilar!

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha e'tiborga loyiq natijalarga erishdik. Mamlakatimizda majburiy va bolalar mehnatiga to'liq barham berildi.

Bir asr mobaynida O'zbekistonda millionlab insonlar paxta terimiga majburiy ravishda jalb etib kelindi. Har yili sentabr oyidan dekabrgacha aholining asosiy qismi – o'qituvchi va shifokorlar, tadbirkorlar, ishchi va xizmatchilar, eng achinarlisi, maktab o'quvchilar va talabalar paxta terimiga safarbar qilinad. Buning natijasida o'zbek paxtasi boykotlar e'lon qilingan, mamlakat esa yillar davomida "qora ro'yxat" larga kiritilgan edi.

Qat'iy irodamiz tufayli endi bularning barchasi o'tmishga aylandi. Xalqimiz paxta quilligida butkul ozod bo'ldi.

Yangi Konstitutsiyamizda majburiy mehnat taqiqanishi kafolatlab qo'yildi va buning uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashni butun dunyo miqyosida kuchaytirish zarur, deb hisoblayman. Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, bunga chek qo'yish imkonibor.

Xonimlar va janoblar!

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir.

Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz.

Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'lim tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oly ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining bira esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo yaxshi qo'shnichilik, barqarorlik, o'zaro hamkor va rivojanish yo'lidan bormoqda.

Birgalidagi sa'y-harakatlarni tufayli O'zbekiston barcha qo'shnilarini bilan davlat chegaralari, transport koridorlari va suvdan foydalish bo'yicha muammolarni bartaraf etishga muvaffaq bo'lmoxda.

Mintaqa davlatlari o'ttasida o'zaro savdo ikki yarim barobardan ziyyod, qo'shma

korxonalar soni esa besh marta o'sdi. Mintaqamiz iqtisodiy rivojanish markaziga, Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan transport-kommunikatsiya ko'prigiga aylanib, unga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi – mintaqaga xavfsizligi va barqaror rivojanishini ta'minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda.

Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirmoqda va bu tuyg'u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarni ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo'limiz yo'q va bo'lishi ham mumkin emas!

Aminmanki, xalqaro hamjamiatning qo'livi bilan Markaziy Osiyo birdamlik yo'lidan borishda davom etadi. Markaziy Osiyon tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo'lib qoladi.

Muhtaram anjuman ishtirokchilar!

Aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo'lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro'yogba chiqarish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida yaqinda mintaqamiz davlatlari tomonidan Yoshlar siyosatining umumiy yo'nalishlari haqidagi bitim imzolandi.

Ayni paytda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish, boshqa mintaqalarning ilg'or tajriba va yutuqlarini o'rganishdan manfaatdormiz.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlaymiz. Markaziy Osiyo suvni tejayidigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jaib etish va tatbiq qilish tarafdomiz.

davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda.

Global muammo bo'lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlari darajasida harakat qilmoqda. So'nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million hektar maydonda qurg'oqchilikka chidamli o'simliklardan iborat yashil hududlar barpo etildi. Bu sa'y-harakatlarimizni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim.

Keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim gradusga ko'tarildi. Bu dunyodagi o'rtacha isishdan ikki karra ko'pdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda.

Agar o'z vaqtida ta'sirchan choralarini ko'rmsak, ushbu muammolar oqibatlarini mintaqamizdagagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlaymiz. Markaziy Osiyo suvni tejayidigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jaib etish va tatbiq qilish tarafdomiz.

Biz mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'ymoqdamiz. Bunday sheriklik manfaatlarni qaralishga birdek mos bo'lib, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tahidlarning oldini olishga qaratilgan. Bu boroda "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyusiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Uning asosisi mazmunini kelgusi yil Samargandda bo'lib o'tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilishni taklif etamiz.

Shu o'rinda ta'kidlashni istardimki, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulushini keskin oshirish biz uchun strategik vazifa bo'lib qoladi.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilar!

Biz ekstremizm balosi tarqalishiga, yoshlarning radikal shavuviga yo'l qo'ymaslik uchun birgalikdagi harakatlarimizni kuchaytirishimiz zarur.

O'tgan yil mart oyida Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkilotining terrorizmga qarshi global strategiyasini Markaziy Osiyoda amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasiga qabul qilindi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Milliy strategiyamiz doirasida bir masalaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. U ham bo'lsa, ilgari ekstremizm g'oyalari ta'sirida bo'lgan shaxslarni sog'lam hayotga qaytarish va jamiyatga moslashtirish masalasidir.

Biz bu boroda o'ziga xos tajriba ottirdik, besh marta "Mehr" insonparvarlik missiyasini o'tkazdik. Uning doirasida 530 nafardan



ziyod fuqaro, avvalo, ayollar va bolalarni Yaqin Sharq va Afg'onistonidagi qurolli nizolar hududlaridan yurtimizga qaytardik. Ularning barchasiga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko'rsatildi.

Xalqaro jamoatchilik joriy yilning iyun oyida mana shu yerda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida mamlakatimizga olib keligan va yangi hayot boshlagan shaxslarning tarixini ulaming o'zlaridan eshitdi.

Buz bu yo'nalishdagi harakatlarni davom ettirish va doimiy tajriba almashishni yo'lga qo'yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi shafeligidagi urush hududlaridan qaytganlar bilan tizimli ishslash bo'yicha Mintaqaviy ekspertlari kengashini tuzishga qaratilgan amaliy qadamlarni tashladik.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi umumiy tahdidlarga qarshi kurashda yanada birlashib, harakat qilishlari kerak.

Yana bir muhim fikri ta'kidlashni istardim. So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Jahan miqyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda YUNESKO shafeligidagi Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etishni taklif qilamiz.

Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, islomni ilm-ma'rifikat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ulug' alloma va mutafakkirlar Vatani ekani bilan haqli ravishda faxlanamiz. Shunday buyuk olimlarning boy merosini o'rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuquq ochib berish maqsadida 2024-yil O'zbekistonda "Islom – tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusini ilgari suramiz.

Hurmatli sessiya ishtirokchilar!

Xalqaro xavfsizlik Afg'onistonidagi jarayonlar bilan bevosita bog'liqidir. Ushbu mamlakatda yangi vaziyat vujudga kelgan bo'lib, u afg'on masalasini hal etishda o'ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda.

Afg'onistonni o'z muammolari bilan yana yolg'iz qoldirish – bu katta xato bo'ladi. Inkor qilish, yakkalab qo'yish va sanksiyalar qo'llash oddiy afg'on xalqining ahvolini yanada og'irlashtirmoqda.

Afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmslik lozim, deb hisoblaymiz. Afg'onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlарini bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz. Bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadigan, qo'shnilar va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg'oniston kerak.

Men bugun ushbu nufuzli minbardan turib, dunyo hamjamiyatini Afg'oniston muammosini hal etish yo'lida birlashishga chaqiram. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida Afg'oniston bo'yicha birgalikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan va konstruktiv pozitsiyani belgilash prinsipial jihatdan muhim, deb hisoblayman.

Hurmatli rais!

Hurmatli anjuman qatnashchilar!

Biz barchamiz hozirgi tarixiy tub burilish pallasida kelgusi avlodlarga sayyoramizni qanday holda qoldirish haqida o'yashimiz lozim.

Mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiyl intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishish mumkin. Bizga o'zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko'proq zarur.

So'zimning yakunida O'zbekiston shu yo'lda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlari va barcha davlatlar bilan keng ko'lami va uzoq muddatli sheriklikni chuqurlashtirishga tayyor ekanini yana bir bor ta'kidlamoqchiman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

JASORATNI QALBIGA JO QILGAN O'G'LON

Qadim-qadimdan mardlikni yigit kishining umr mezonii, deya ta'riffashadi. E'tibor bering, dono hakam bo'lgan tabiat hayot qonunlarini shu qadar odillik bilan taqsim etganki, bu olamda har bir inson, har bir kasb egasining zimmasiga yuklangan o'z burchi bor: ota-onalik burchi, farzandlik burchi, Vatanni asrash burchi...



Yurt himoyachisi bo'lishdek sharaflı vazifani o'g'lonlarimiz ado etgani uchun ham ular hamisha el duosida. II darajali serjant Mansur Tog'ayniyazov ezgulik yo'lida o'z kasbini e'zozlab, munosib iz qoldirayotgan harbiy xizmatchilardan biri. Markaziy harbiy okrugga qarashli harbiy qismlarning birida yo'riqchi serjant vazifasida xizmat qilayotgan qahramonimizning o'tgan yillarda davomida erishgan muvaffaqiyati, bu yo'ldagi shijoati, intiluvchanligi Mustaqilligimizning 32 yilligi bayrami arafasida munosib e'tirof etildi va u "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

Mansur Tog'ayniyazov Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanida tug'ilgan. Qishloqda ulg'ayib, voyaga yetgan yigit bolaligidan harbiy kasbga mehr qo'ydi. Yillar o'tib, orzusiga erishganida o'g'illarining munosib yo'l tanlaganidan ota-onasi xursand bo'lgani haqiqat. Chunki ular qaddi-basti to'kis, sog'lom, g'ayratli va intiluvchan farzandlaridan harbiy xizmatchi chiqishiga ishoni shog'gandi. Shuningdek, Vatan va el nazariga tutash bu yo'ning yorug' kelajagi qaysi ota-onani masrur qilmaydi, deysiz. Eng muhimi esa yillard o'tib, Mansurjon ota-onasining ham, yaqinlarining ham ishonchini oqladi.

– Yoshligimda harbiylarni ko'rsam, "Men ham harbiy bo'lsam, Vatanimga xizmat qilsam, ota-onamni baxтиyor qilib, mard o'g'lon bo'lib, voyaga yetsam", deb havas qillardim, – deydi II darajali serjant Mansur Tog'ayniyazov.

– Voyaga yetayotganim sari o'tayotgan yillarda meni orzum sari yaqinlashtirayotganidan mamnun bo'lardim. 2004-yilda o'z yigitlik burchimni o'tash uchun muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Xizmat davrimda komandirlarimning o'ziga bo'lgan ishonchi, dovyurakligi, shijoati qablimdagagi harbiy kasbga bo'lgan qiziqishni oshirdi. O'sha vaqtarda men ham ular kabi mard, jasur bo'lishga, qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishga harakat qildim.

Muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni davom ettirdim. Bu esa o'z navbatida mendan yanada mas'uliyatliroq bo'lishimni taqozo etardi. Shu sababli aytilgan vazifani o'z vaqtida va bekam-u ko'st bajarishga intilardim, doimiy ravishda sport bilan



shug'ullanishni kanda qilmasdim. O'shanda insonda kuch-quvvat, g'ayrat va shijoat ortgan sari o'ziga bo'lgan ishonch ham ortishini anglab yetganman. Eng muhimi, intilishlarim besamar ketmadni. Ilk bor 2010-yilda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug miqyosida o'tkazilgan "Eng ilg'or razvedka guruhi" musobaqasida faxrlı 1-o'rinni egalladim. Ilk g'alaba g'urur baxsh etib, meni bundan-da yuksak marralarni zabt etishga ruhlantirgan. Malaka va tajribamni yanada oshirish ustida timmay ishladim.

Sportning yengil atletika turiga qiziqishim baland edi. O'sha vaqtarda sportning shu yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan musobaqada 5 marotaba faxrlı 1-o'rinni qo'lga kiritganman. Yillar o'tgan sayin yutuqlarim ko'payar va shu asnoda tajribam, bilimim ortib borar edi. Keyinchalik "Eng ilg'or mutaxassis" tanlovining "Eng ilg'or serjant" musobaqasida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug miqyosida faxrlı 1-o'rinni, Mudofaa vazirligi miqyosida esa faxrlı 2-o'rinni qo'lga kiritdim.

2017-yildan esa xizmatimni Markaziy harbiy okrugda davom ettirdim. 2018-yilda Markaziy harbiy okrug miqyosida o'tkazilgan "Eng ilg'or razvedka guruhi" musobaqasida umumjamoa hisobida 1-o'rinni egallagan bo'lsak, 2019-yilda Markaziy harbiy okrug miqyosida "Eng ilg'or kasb ustasi" tanlovining "Eng ilg'or serjant" musobaqasida 1-o'rinni, Mudofaa vazirligi miqyosida esa 2-o'rinni qo'lga kiritdim.

Shu kungacha erishgan yutuq va muvaffaqiyatlarimda ota-onamning, oilamning ham munosib hissasi bor. Chunki yaqinlarimning qo'llab-quvvatlashlaridan kuch olaman, ular tufayli oilamdan, farzandlarimdan ko'nglim xotirjam. Ko'ngli xotirjam harbiy xizmatchi esa chalg'imay, shijoat bilan unumli xizmat qiladi...

Qahramonimizning mehnatsevarligi, har qanday sharoitda va vaqtida safdoshlariiga yordamga shayligi e'tirofga sazovor. Shu tufayli ham u jamoada o'z o'rniiga ega va hurmatga sazovor.

U bo'linmada jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha ishlarni tashkil etish va o'tkazish, shaxsiy tarkibni Vatanga, harbiy burchga hamda qasamyodga sodiq, yuksak jangovar va axloqiy-ruhiy barqaror bo'lib shakllanishi yo'lida doim jonbozlik ko'rsatib keladi. Uning o'ziga topshirilgan vazifalarni vijdoran va o'z vaqtida bajarib, yosh harbiy xizmatchilarga o'rnak bo'lib kelayotgani ham e'tirofga sazovor.

Ha, Vatan oldidagi xizmatlari yuksak mukofotlangan qahramonimiz safdoshlariiga har jihatdan namuna bo'layotgan harbiy xizmatchilardan. Xulosa o'rniда aytish mumkinki, yurt himoyachilariga berilayotgan e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar, shunday fidoyi harbiy xizmatchilarning mardonavor xizmat qilishlariga, o'z iste'dod va mahoratlarini to'la namoyon etishlariga zamin yaratmoqda.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi**



“OLTINKON” – professionallar tayyorlanadigan markaz

Qo'shincharning jangovar shayligini oshirish, har qanday vaziyatda yuklatilgan vazifani tezkor va sifatli bajarish qobiliyatiga ega harbiy xizmatchilarni tayyorlash ishlariga bugun alohida e'tibor qaratilmoqda. Sharqiylar harbiy okrug “Oltinkon” tog' tayyorgarligi tayanch bazasi ham ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Dengiz sathidan 2 000 metr balandlikda, qariyb 15 ming gektar hududni o'z ichiga olgan, zamon talablariga mos ravishda buning etilgan mazkur o'quv markazining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov, Qurolli Kuchlar faxriyari, mahalliy aholi vakillari, yoshlar va o'quv markazining tog' tayyorgarligi mutaxassislari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar markaz milliy armiyamizning professional mahorati oshishiga munosib hissa qo'shishini alohida ta'kidladi.

O'tgan yillarda davomida "Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv markazi xalqaro talablarga mos ravishda qurib bitkazilib, faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu yo'nalihsidagi amaliy ishlarning mantiqiy davomi sifatida okruglar kesimida "Saridala", "Toshqo'rg'on" va "Oltinsoy" tayanch bazalari tashkil etilib, "Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv markazi bo'yunsuviga o'tkazildi va yagona tog' tayyorgarligi tizimi yaratildi.

Aytish joizki, mazkur o'quv markazida tog' tayyorgarligi bo'yicha ilk bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan barcha o'quv nuqtalari zamon talablariga mos ravishda barpo etildi. Sodda qilib aytganda, o'quv markazi tog' tayyorgarligi yo'naliishi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga kirishayotgan harbiy xizmatchilar uchun dastlabki bosqich vazifasini o'taydi.

Vatan posbonlarining nazariy bilimlarini oshirishga mo'ljallangan o'quv xonalari, maroqli hordiq uchun yotoqxonalar-u 100 kishilik oshxona bugungi kun talablariga to'la mos keladi.

Jangovar salohiyatni oshirishda tog' tayyorgarligi muhim va samarali





yo'nalishlardan
bir idir.
Nihoyatda
murakkab va
noqulay tog'li
hududlarda toblangan
askar esa har qanday
qiychilikka dosh bera
oladi. Faoliyati yo'iga
qo'yilgan bazada endilikda
oyiga 60, yiliqa esa 700 ga yaqin
harbiy xizmatchi ayni yo'nalishda
yetakchi mutaxassislar tomonidan
chuqur o'qitiladi. Mazkur tayanch
bazasida qishki va yozgi o'quv kurslari
tashkil etilib, harbiy alpinizm, tog'da
harakatlanish taktikasi, harbiy-tibbiy va
aloqa tayyorgarligi mashg'ulotlari bo'yicha
mutaxassislar o'qitish amalga oshiriladi. Bu
yerda har bir tog' tayyorgarligi mutaxassisining
individual va professional tayyorgarligini oshirish,
mashqlarni real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda
tashkil etish imkoniyati mavjud.

Marosim davomida ishtirokchilar uchun ko'rgazmali
mashg'ulotlar ham o'tkazildi. Bunda yurt himoyachilari o'quv
joylarida turli murakkab mashqlarni bajarib, yuqori jangovar
tayyorgarlik va mahoratga ega ekanliklarini namoyish
etishdi.

Darhaqiqat, bu kabi o'quv bazalari harbiy
xizmatchilarning tog' sharoitlarida jang olib borish
bo'yicha amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishga,
tog'li hududlarda jangovar vazifalar bajarishga
mo'ljallangan bo'linmalarni tayyorlash
tizimining takomillashuviga, tog'li hududlarni
nazorat qilishga, tog' tayyorgarligi
mutaxassislarini tayyorlash va ular
malakasini oshirishga hamda
yo'riqchilar zaxirasining yaratilishiga
asos bo'lib xizmat qiladi.

Katta leytenant
Islamjon QO'CHQOROV,
"Vatanparvar"

JANGOVAR

TAYYORGARLIKDA YANGICHA YONDASHUV

Qo'shinlar jangovar tayyorgarligini yuksaltirish, jang olib borishning yangicha usul va uslublarini qo'llash, turli hududlarda qurol hamda harbiy texnikalardan oqilona foydalanishni o'rgatish maqsadida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari yildan yilga takomillashtirilib, zamon bilan hamnafas olib borilmoqda.



Harbiy xizmatchilarning individual tayyorgarligini oshirish va bo'linma tarkibida jipsligini ta'minlash maqsadida yangicha murakkab mashqlardan iborat me'yorlar tayyorgarlik jarayonlariga samarali joriy etilmoqda.

"Nukus" umumqo'shin poligonida yangicha usul va uslublar bilan olib borilayotgan jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari yurt himoyachilarini toplib, kasby ko'nikma va o'ziga bo'lgan ishonchining ortishiga xizmat qilmoqda. Bo'linma tarkibida qurol va harbiy anjomlar bilan uzoq masofalarga marsh yugurish orqali jamoaviy jipslik yanada shakllantirilib, jismoniy imkoniyatlari oshirilishiga erishilyapti.

Ma'lumki, mashaqqatli to'siqli yo'lagidan o'tish uchun kuchli jismoniy tayyorgarlik talab etiladi. Nostandart va noqulay to'siqlar o'tuvchanligi past, ko'p jismoniy zo'riqish talab etadigan yaqin jang maydonlarini eslatib, harbiy xizmatchilarda ephillik, chaqqonlik, chidamlilik xislatlarini oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Mana shunday og'ir va sinovli damlar har bir insонning nafaqat jismoniy, balki ruhiy zo'riqishlarni qay darajada yengishini ham ko'rsatib beradi. Zero katta kuch va chidamlilik talab etadigan zo'riqishlar chog'ida insonda kuchli emotsiyon stress va ruhiy zo'riqish



holatlarining ortishi tabiiy hol. Shuning uchun jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari turli to'siqli yo'laklarda mashqlar qo'llanilib, o'g'lonlarning jangovar ruhi va chidamliligi bosqichma-bosqich oshirilib boriladi.

Poligon hududida bir necha kun davomida dala chiqishida ishtiroy etgan bo'linmalar merganlik mahoratlarini yuksaltirib, yuqori qavatlardan arzon yordamida tushish mashqlarini bajardi. Tugunlarni to'g'ri bog'lash, ehtiyoj choralarini qo'llash va texnika xavfsizligi talablariga rioya etgan holda yuqori qavatlardan arzon yordamida tushishni mashq qilgan o'g'lonlar mashg'ulotlardan imkon qadar ko'proq tajriba olishga erishdi.

Majmuaviy o'q otish usullari zamonaviy jang hududida vazifalarni tez va sifatli bajarish, har xil quollardan turli usullarda o'q otishni hamda granata, pichoq va belkaraklarni nishonlarga uloqtirishni o'rganishda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ushbu mashqlarni bajaruvchi harbiy xizmatchilarga qo'shimcha yuklamalar berish hamda nostandart vaziyatlarda qanday yo'l tutishini o'rganish maqsadida mashg'ulot jarayonida ularga qo'shimcha vazifalar berib borildi. Jumladan, harakat yo'nalishida

qo'shimcha taktik vazifa bajarish, shartli ravishda yaralangan safdoshiba birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda uni jang maydonidan xavfsiz hududga olib chiqish kabi qo'shimcha vazifalar harbiy xizmatchilarning ko'nkmalarini yanada mustahkamlamoqda.

Jangovar yakkalik va juftlik, guruh tarkibida bajarilgan me'yorlar vaqt hamda nishonlarga yetkazilgan talafot, kutilmagan vaziyatlarda berilgan topshiriqlarni bajarish sifati kabi mezonlar bilan baholab borildi. Tayyorgarlik mashqlarining sifatini oshirish, jamoada sog'lom, raqobatbardosh muhitni ushlab turish hamda harbiy xizmatchilarda liderlik xususiyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida mashg'ulotlar kichik bo'linmalar o'tasida musobaqa tarzida o'tkazildi. Yuqori natijalarga erishgan jamoalarning yutuqlari qolganlarga o'rnak, namuna sifatida e'tirof etildi.

Kichik serjant
Abdullahjon UMARALIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati

SPORT – SOG'LIQ GAROVI**“BESH TASHABBUS OLIMPIADASI”**

Ertamiz egalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunda barcha sohalar singari milliy armiyamizning ham o'rni beqiyosdir.



Mudofaa vazirligiga qarashli Olmalik shahrida joylashgan harbiy qism sport majmuasida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sportning boks turi bo'yicha “Harbiy qism komandiri kubogi” musobaqasi bo'lib o'tdi.

Unda 33 kg.dan 66+ kg.gacha jami 10 vazn toifasida 200 ga yaqin harbiy xizmatchining farzandlari, harbiy qismda tashkil etilgan to'garak ishtirokchilari va Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi faol sportchi yoshlar o'zaro bellashuvga kirishdi. Sport musobaqasida Toshkent viloyati boks federatsiyasi raisi, Olmalik shahri hokimligi, jamoat tashkiloti

vakillari va harbiy xizmatchilar ishtirot etdi.

Harbiy orkestr jamoasi tomonidan ijro etilgan musiqa sadolari ostida murosasiz va shiddatli kechgan boks musobaqasida o'smirlar o'zlarining nimalarga qodir ekanligini to'la namoyish qildi.

Soha mutaxassislardan jamlangan hakamlar hay'atining yakuniy natijalariga ko'ra, g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilarga harbiy qism komandirining kubogi, diplom va qimmatbaho sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

TANLOV**KADR ORGANI OFITSERLARI – KIM ILG'OR?**

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qismda kadr organi ofitserlari ishtirokida o'quv uslubiy yig'in va “Eng ilg'or kadr organi ofitseri” tanlovining qo'mondonlik bosqichi bo'lib o'tdi.



Tanlovning birinchi kunida saf ko'rigi bo'lib, ularning saf tayyorgarligi bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi. Shundan so'ng poytaxtimizda joylashgan “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasi va “Shon-sharaf” davlat muzeyida hujjatlarning yuritilishi, saqlanishi va uni rasmiylashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida qator mashg'ulotlar tashkil etildi.

Unga Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi ofitserlari, Qurolli Kuchlar akademiyasi professor-o'qituvchilari, “Yurist va kadr” nodavlat ta'llim muassasasi xodimlari, Alisher

Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining malakali o'qituvchilari taklif etildi.

Yig'in davomida harbiy xizmatchilar jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovlardan ham o'tdi. Shuningdek, dala-o'quv maydonida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlarda otish, maxsus tayyorgarliklar, ommaviy qirg'in qurollardan himoyalanish bo'yicha o'zaro bellashdi.

Yakunda respublikamizning deyarli barcha hududlaridan tashrif buyurgan kadr organi ofitserlarining yil davomida amalga oshirgan ishlari hisobotlari tinglanib, tanqidiy tahlil qilindi.

Yig'in davomida yuqori natijalarga erishgan ishtirokchilar faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan taqqirlandi.

OGOHLIK – DAVR TALABI**MUHIM MAVZUDAGI DAVRA SUHBATI**

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi tezkor zamonda har xil ko'rinishdagi mafkuraviy xatarlar soni va shakli tobora ortib bormoqda. Bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lish zaruratini davning o'zi taqozo qilmoqda. Aks holda jamiyatda o'nglab bo'lmas, taraqqiyotdan ortda qolishiga sabab bo'ladigan ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy muammolar kelib chiqishi mumkin.



Shu munosabat bilan Toshkent viloyati Olmalik shahridagi “Metallurg” madaniyat saroyida Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism tashabbusi bilan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” doirasida “Harbiy xizmatchilar ongida diniy ekstremizm va fundamentalizm g'oyalariga qarshi immunitetni shakkantirish” mavzusida davra suhbati bo'lib o'tdi.

Tadbirga Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi din ishlari bo'yicha qo'mitasi va bir qator huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari taklif etildi. Unda so'zga


chiqqanlar harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining huquqiy orgini oshirish, qonunchilikdagi yangiliklar hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va mutaassiblik haqida bat afsil ma'lumotlar berib, barchani ogohlukka chorladi.

Tadbir davomida mavzuga doir maxsus videoroliklar ham namoyish etildi.

Bu kabi davra suhbatarining o'tkazilishi harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligini va dunyoqarashini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO'Q**HARBIYLAR “G'ALABA BOG'I”GA NEGA BORDI?**

Ikkinchi jahon urushida erishilgan g'alabada O'zbekiston aholisining munosib hissasi bor. O'sha payti yurtimizdagи barcha iqtisodiy obyektlar, zavodlar va fabrikalarning harbiy yo'nalishga ixtisoslashishi urushning front orti ta'minotida katta ahamiyat kasb etgan.



Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qism shaxsiy tarkibi urush qahramonlarini yod etish va ularning nomini abadiylashtirish maqsadida “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasiga ekskursiya uyshtirdi.

Tashrif davomida harbiy xizmatchilar bog'ning ekspozitsiyalari, o'sha davning front orti ta'minotidagi hayoti haqida, shuningdek “Shon-sharaf” davlat muzeyidagi qimmatli eksponatlar, tarixiy qo'lyozmalar va sahnalashtirilgan manekenlarning guvohi bo'lishdi.

Yodgorlik majmuasining xodimlari tomonidan bugungi kunda majmuaga kiritilayotgan o'zgarishlar, yangi qo'shilayotgan eksponatlar va urush qahramonlarining nomini abadiylashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar haqida ham bat afsil ma'lumotlar berildi.

Bugungi kunda ushbu bog' otabobolarimizning fashizmga qarshi kurashdagi qahramonligini, ularning jasorati va matonatini yaqindan o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Joriy mavsumda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari saflarini har tomonlama yetuk muddatli harbiy xizmatchilar bilan butlash, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati hamda harbiy-akademik litseylarga o'quvchilarni tayyorlash ishlarida respublika miqyosida yuqori natijalarni ko'rsatgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmalarining xizmatlari Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan yuqori baholanib, ularning ilg'or tajribalari namuna sifatida e'tirof etilgan.



TAJRIBALAR E'TIROF ETILDI



Ushbu tajribalarni qolgan hududlarda ham ommalashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmalarini namuna sifatida e'tirof etish hamda amaliy tajriba almashish maqsadida Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi negizida Qurolli Kuchlar Bosh shtabi Tashkiliy-safarbarlik bosh boshqarmasi rahbarligida uch kunlik o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.

Chaqiruv rahbariyati kengashi raislari, harbiy okruglar tashkiliy-safarbarlik va mudofaa ishlari boshqarmalari hamda chaqiruv bo'limlari boshliqlari ishtirokida o'tkazilgan yig'inning birinchi kunida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov va Tashkiliy-safarbarlik

bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Samandar Bazarov tomonidan chaqiruv mavsumida yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda erishilgan yutuqlar alohida ta'kidlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmalarining yutuqlari va ilg'or tajribalari barchaga o'nak sifatida ko'rsatildi.

O'quv-uslubiy yig'in rejasiga muvofiq, ishtirokchilar bilan viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi hamda Urganch shahri va tuman mudofaa ishlari bo'limlari va boshqarma yig'uv punktida umumiyo faoliyat va yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, rahbariyat kengashi, hududi, harbiy-tibbiy va butlash komissiyalarining ish jarayoni ko'rgazmali tarzda namoyish etildi.

Shuningdek, yig'in doirasida Urganch tumanidagi "Oq mакtab" mahalla

fugorolar yig'inida chaqiriluvchilarni mahallabay o'rganish bo'yicha amaliy mashg'ulot tashkil etilib, ushbu tizim vosisasida o'rganish ishlarinining afzalliklari tushuntirib o'tildi. Umumta'lim maktablarining 11-sinf o'g'il bolalari bilan bir kunlik dala mashg'ulotlarida tashkil etiladigan qurol-aslaho va harbiy texikalar ko'rgazmalari hamda qurollardan amaliy o'q otish mashg'ulotlarini, shuningdek harbiy-vatanparvarlik tadbirlerini sifatli tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Tadbir davomida rahbaryat kengashi raislari va a'zolari bilan 2024-yil uchun muddatli harbiy xizmatga saralash tadbirlerini sifatli tashkillashtirish, mudofaa ishlari bo'lim va boshqarmalar faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tildi. Qo'liga kiritilgan natijalar va

rejalashtirilgan tadbirlar hisoboti tinglanib, yig'in bo'yicha qaror qabul qilindi.

Yig'in doirasida ishtirokchilar uchun Prezidentimiz tashabbusi bilan yaqindagina faoliyatini boshlagan Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyi hamda 2021-yilda qayta rekonstruksiya qilingan "Yangiariq" umumqo'shin poligoni o'quv-moddiy bazasi va yaratilgan sharoitlar bilan tanishish maqsadida ekskursiya tashkil etildi. Ishtirokchilarning madaniy hordiq chiqarish ishlarini tashkil etish maqsadida Markaziy Osiyodagi noyob me'moriy-tarixiy yodgorlik majmuasi – Xiva shahridagi Ichan qal'aga sayohat uyuşhtirildi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



Asl olim Naim Karimov vafot etdi. Akademik 91 yoshda edi. Uning vafoti ilm-ma'rifatli har bir yurtdoshimizni chuqur qayg'uga solgani ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarda ham aks etdi. Bir inson shunday yashasa-da, mo'tabar bir yoshda so'ng manzilga ketishi ham qalblarni larzaga solsa...

ASL OLIM — ASL O DAM

Sirojiddin RAUF,

“Sharq yulduzi” va “Zvezda Vostoka” jurnallari bosh muharriri:

— Zahmatkashligi, zukkoligi, millatparvarligi bilan xalq orasida shuhrat qozongan adabiyotshunos Naim Karimovning “Abdulla Qodiriy zamondoshilar” kitobi (Toshkent: “Akademnashr”, 2019. – 320 b.) qomus – ensiklopediya xarakteridagi muhtasham tadqiqot bo'lib, unda ulug' adib bilan bir davrda yashagan, uning hayoti va ijodiga aloqador 254 kishi to'g'risida ma'lumot beradi.

...254 nafar kishining Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga daxldor jihatlari to'g'risidagi mulohazalardan zulmat zamon odamlari ruhiy izziroblar, azob-u qynoqlar ichida umrguzaronlik qilgani, ularga o'sha mudhish davrda “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” kabi asarlar taskin-tasalli bergani, shu bois odamzod azal-azaldan adabiyot va san'atga ehtiyoj sezib yashagani, to hanuz uni e'zozlab, ardoqlab kelayotgani oydinlashadi.

Abdulla Qodiriy yashagan zulmat zamon bilan yaqindan tanishtiradigan mazkur qomusda juda ko'p yozuvchi, shoirlar, davlat va jamoat arboblari, “O'tkan kunlar” muallifining oila a'zolari va qadronlari to'g'risida boshqa biror darslik, tadqiqotda qayd qilinmagan haqiqatlar taqdim qilinadi.

Ulug'bek HAMDAM, yozuvchi, adabiyotshunos olim:

— Ustoz, akademik Naim Karimov bilan 1997-yildan beri birga, bitta bo'limda ishladim. U nafaqat adabiyotshunos olim, ayni paytda, jiddiy san'atshunos, teatrshunos, tanqidchi va tarixchi ham edi. Ustoz yana qardosh turkiy xalqlar adabiyotining katta bilimdoni. Shuningdek, rus adabiyoti va adabiy tanqidini yaxshi bilardi. Domla dramatik asarlar yozgan, yaxshigina rasmlar ham solgan.

Naim Karimov diapazoni keng olim bo'lganidan u yog'i Tatariston, Ozarbayjon, Turkiya, bu yog'i qo'shni davlatlarning bari uning faoliyatini yaxshi bilihardi...


Ustoz olim Behbudiy, Avloniy, Hamza, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpox, Usmon Nosir, Oybek, G'. G'ulom, Shayxzoda, Zulfiya, Mirtemir, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Usmon Azimgacha bo'lgan o'zbek adabiyotini obdan o'rganib, o'zidan salmoqli tadqiqotlar qoldirdi. Domla o'zi o'rgangan adabiy siymlarning xayollari bilan yashadi. Domlaning eng yoqtirgan tadqiq usuli biografik metod bo'lib, masalan, “Oybekning falon she'ri qayerda, qanday kayfiyat ostida yozilgan degan savolga darrov o'rinni ilmiy javob olish mumkin bo'ldi. Domla haqiqiy adabiyot bilan yashadi, uning kashfiga umrini berdi.

Akademik Naim Karimov juda barakali, ibratomuz hayot kechirdi.
Ustozni Olloh rahmat aylasin!
Yuzlab, balki minglab shogirdlaridan biri: U. HAMDAM.

Begali ESHONQULOV:

— Naim Karimov. Bu nom bilan ancha yillar avval, Samarqandning ertaknamo ko'chalari, so'lim bog'lari, o'rsidan qolgan cherkov va otxonalari, Temuriylardan qolgan obidalar bag'rida tanishganman. Qo'limda “Usmon Nosirning so'nggi kunlari” nomli kitob bor edi...

Usmon Nosir! Ulkan qalb sohibi. Naim Karimov esa bu qalbning mohir tarimonini edi. U



Javlon JOVLIVEV:

— Yaxshilar ketganda yosh tasallি berolmaydi!

Muzaffar MUHAMMADNAZAR:

— Mana, bir necha yildirki, Naim Karimov mustamlaka davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish ustida ish olib borayotgan edi. U “Shahidlar xotirasi” memorial majmuasiga hamda “Qatag'on qurbanlari xotirasi” muzeysi asos solinishida ko'p hissa qo'shgan. “Qatag'on qurbanlari xotirasi” muzeysi yaratilishi og'ir ish bo'lgan. Zero o'sha vaqtlar suratlari, qo'lyozmalari, hujjatlari, kiyim-kechaklari va boshqa ashyolarni topish qiyin bo'lgan. Shunga qaramay, eksponatlar topilgan va muzej belgilangan vaqtida ochilgan.

Narzulla SHODIYEV:

— Millat so'z san'atimizning nodir tadqiqotchisi, yangi O'zbekiston aqliy-intellektual rivoji istiqbolini belgilab bergen noyob ilmiy-ma'naviy EPOXASIdan ayrıldi!

Tiriklikda jannatiUSTOZning yodi
— ABAD!

Nurali Tagay NAZAROV:

— Akademik. Adabiyotshunos. Tarixchi.

Qatag'on yillari tarixini xalqimizga bu buyuk insonday hech kim tushuntirib berolmagan. Haqiqiy xalq qahramoni edi.

Jumagul SUVONOVA:

— Ustozim Naim Fotovich Karimov umrini adabiyotga, ilmiga bag'ishlab o'tdilar. Qaniyi, hammamiz ham hayotimizni shunday muborak va ulug' ishlar uchun sarflay olsak...

Feruza AZIMOVA:

— Fitrat, Qodiriy, Cho'lpox, Usmon Nosir hayoti, faoliyati, og'ir kechinmalari, qatag'onning mudhish sirlari va oqibatlarini sinchkovlik bilan tadqiq etib, achchiq va achinarli haqiqatlarni ochib bergen allomaning sermahsul xizmatlari adabiyotshunosligimizning abadiy yutug'idi!

O'lim haq! Buni muhokama qilib bo'lmaydi. Ammo bu Millatda, bu Vatanda Naim Karimovdek mehnatkash va yuksak salohiyat sohiblari ko'payishini, tarixning qorong'i ko'chalari fonuslarini yoqib berishini, bir so'z bilan aytganda, dunyoga qay holda va qay manzilda kelishdan qat'i nazar sharaf bilan ketishini istayman.

Alvido, Ustoz!

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Adabiyotshunos olimning shunday satrlari bor ekan:

*Ajab odati bor umr daryosin
Dastlab sust oqadi, sokin, zo'r-bazo'.
Endi tushunganda hayat ma'nosin
Uning shiddat bilan oqishini ko'.
Chamandek ochilib sochilgan edi,
Yoshlikning nafarmon gullari kecha.
Quritib qo'yibman, oh, bilsam endi
Umr daryosini men icha-icha...*

Filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov bizga Usmon Nosirni tanitdi, Cho'lpoxni tanitdi, Qodiriy yashagan davrni, uning olamini tanitdi. Men sovet maktabida o'qigan katta avlodning biriman. Maktabda yaxshi o'qiganman. Qadimgi dunyo tarixini o'qiganman, Yuliy Sezar, Kleopatra-yu Oktavian Avgust, Yan Gusni taniganman, Pyotning olamshumul ishlarini o'qidim, Sankt-Peterburgga qanday asos solingenanini ham o'qidim. Ammo Turkiston tarixini o'qimadim. Bir parchagina kitobda Amir Temuring qonxo'rligini tasdiqlagandek, bir rasm, istilochiligi, “baxtimizga” Rossiyaga qo'shib olinganimiz...

O'n to'qqizinchi asr rus mumtoz adabiyotidan-ku hech kim qolmadni. Darsliklarga kiritilgani yetmaganiday, deyarli barchasining asarları o'zbek adabiy tiliga chevirilgan edi. Kutubxonalar ularning asarlariga to'la edi. Maksim Gorkiyni o'qimaslik mumkin emas edi. Katta-katta parchalarni yodlaganimiz, to'g'rirog'i, yodlatishgani... Usmon Nosirni birov tilga olgan emas, Cho'lpoxni hatto eshitmagan edik. Fitrat, Behbudiy, Munavarraqi Abdurashidxonov kabi oydinlarimizni o'sha bolalik yillarimiz o'rgansak, tanisak edi...

Yaxshiyam gazeta-jurnallarimizning borligi, yaxshiyam Naim Karimovdek olimning borligi. Millat oydinlari haqida, o'zbekning ham shonli tarixi borligi haqida ulardan o'qib-o'rgandik, jadidlarimizni tanidik. “Vatanparvar” sahifalarida ham olim bilan suhbatlar e'lon qilingan, uning igna bilan quduq qazigandek amalga oshirgan qator tadqiqotlaridan maqolalar berilgan.

Bugun zahmatkash olimimizning ishlarini davom ettirayotgan shogirdlari talaygina. Quyida o'zbek ziyorolarining akademik Naim Karimov haqida bildirgan fikrlari, e'tiroflaridan parcha keltirishni o'rinni topidik. Ulug' allomani bizdan ham yaxshiroq bilganlar, taniganlar gapirsin.

BURCH FAQAT ADOLATDIR

Sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda sudsarning asosiy vazifasi bo'lgan fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga oliy qadriyat sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, harbiy sudsardagi yangilanishlar jamiyatimizda armiyaga va harbiy xizmatga nisbatan yondashuv va qarashlarni tubdan o'zgartirdi.



Bu yo'lda fidoyilik ko'rsatgan, bor ilmi va umrini soha rivojiga bag'ishlagan insonlar talaygina. Quyida mana shunday zahmatkash insonlardan biri, birinchi darajali adliya maslahatchisi, iste'fodagi adliya polkovnigi Savronbek Tursunov haqida so'z yuritamiz.

– **Suhbatimizni bolalik yillaringiz va oilangiz haqida boshlasak...**

– 1952-yili Jizzax viloyatining Forish tumanida tug'ilganman. Ota-onam ziyoli, 8 nafar farzandning to'ng'ichi bo'lganman. Ta'lum olgan maktabimda otam rahbarlik qillardilar. Bu biz farzandlarga, ayniqsa menga ikka karra mas'uliyat yuklardi. Chunki birinchi navbatda yaxshi o'qish, na'muna ko'rsatish, qisqa qilib aytganda, ota-onamizga munosib bo'lishning ma'naviy yuki bo'lsa, boshqa tomonidan ukalarim, singillarimning ham ta'lum olishlariga ko'maklashish bo'lgan. Shundan bo'lsa kerak, ortiqcha ishlarga vaqt sarflamasdik, diqqatimizni ilm olishga qaratganmiz. Bu esa yillar o'tib, o'z natijasini ko'rsatdi. Olti nafar farzandim bor, ularning barchasi oliy ma'lumotli. Bunda bolalikdan olgan tarbiyamiz, otamizning shaxsiy xislatlari va farzandlar tarbiyasiga bo'lgan o'zgacha yondashuvining o'rni bor deb hisoblayman.

– **Bu sohaga bo'lgan qiziqishingizga nima tutki bo'lgan?**

– Bolalik yillarimizda tuman prokurori Tursunqul Suyunov uyimizda mehmon bo'lganlar. Dadam bilan suhbatlari, kiyimlaridan tortib, o'zlarini tutishlari havasimni keltirdi. Shundan keyin menda ham kelajakda huquq himoyachisi bo'lish maqsadi shakllangan. 1971-yili Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kirdim. O'qishni tugatganidan so'ng 1976-yilda aynan Jizzax tumani prokuraturasida ish o'rganuvchi bo'lib faoliyatimni boshladim. Tursunqul Suyunov bilan birga ishslash, u kishidan ustoz sifatida ko'p bilim va tajriba olish nasib qildi.

– **Mehnat faoliyatizingiz va ustozlaringiz xususida ham gapirib bersangiz.**

– Yuqorida aytib o'tganimdek, Jizzax tumani prokuraturasida ish boshlaganimdan so'ng 1977-yildan

2002-yilgacha viloyat prokururasining bo'lim prokurori, Jizzax tumani prokurorining yordamchisi, viloyat sudining sudyasi, G'allaorol tumani sudining raisi, Respublika Oliy sudining sudyasi, Jizzax va Samarqand viloyatlari sudsarning raisi sifatida faoliyat olib bordim.

2002-yildan esa faoliyatim harbiy soha bilan bog'landi. Shu yili O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining o'rinnbosari etib tayinlandim. 2006-yildan 2013-yilgacha O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisi sifatida xizmat qildim.

Shu o'tgan davr mobaynida juda ko'pchilikdan bilim va tajriba orttirdim. Bunda ustozlarimiz Alisher Mardihev, Oltmis Aliboyev, Ubaydulla Mingboyev, G'affor Normatov, Shermat Umarov, Sodiqjon Yigitaliyev, Abdusamat Polvonzodalarning o'rni katta deb bilaman.

– **Ikki davrni ko'rgan, bevosita faoliyat olib borgan inson sifatida tizimdagи o'zgarishlar haqida nima deysiz?**

– Bu ikki davr juda farq qiladi. Sharoidtan tortib tizimgacha. Ilk faoliyatim davrida 4-5 suda bitta tor xonada o'trib ishlaganmiz. Faoliyatimizni qonunlar asosida olib borsak-da, SSSR kommunistik partiyasining roli va uning manfaati ustun turardi. Sudyalar barcha ishlarni ko'rardi. Bu ish hajmining ko'pligi va muddatning kamligi sudyalarining ba'zi holatlarda ishni to'liq o'rganolmaslik, shoshilinch qaror chiqarishga, bu esa inson manfaatlarining buzilishi holatlariha ham olib kelgan vaqtlar bo'lgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng boshqa sohalar singari sud-huquq tizimida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Sudlar ixtisoslikka ajratildi. Bu ishni chuqurroq o'rganish, qonuniylikni ta'minlashga zamin yaratdi. Adolatli qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan, mustaqil, turli xil ta'sirlarga qarshi tura oladigan yuksak malakali, hayot tajribasiga ega sudyalar korpusini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Jazo esa shaxsni qiyash, jazolash emas, balki uni tarbiyalash, jamiyatimizning sog'lom fikrla a'zosiga aylantirishga qaratilgan davlatimiz

siyosatining yana bir amaliy ko'rinishiga aylandi.

Sohadagi islohotlarning yana eng muhim o'zgarishi sifatida harbiy sudsalar Mudofaa vazirligi tarkibidan chiqarilib, Oliy sud tizimiga o'tkazilganligi deb bilaman. Bu sud hokimiyyati mustaqilligi prinsipiiga amal qilinishida muhim omil bo'ldi. Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida armiyadagi axloqiy-ruhiy, ma'naviy muhit butunlay yangilanib, harbiy xizmatchilar o'rtaсидagi munosabatlar tubdan o'zgardi. Bu, albatta o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Buning negizida harbiy sudsalar shakllanishi, rivojlanishi va Qurolli Kuchlarda o'ziga xos o'ringa ega bo'lishi, harbiy odil sudlovni amalga oshirishda katta hissa qo'shgan ustozlarimizning mashaqqatli va fidokorona mehnati yotibdi.

Kadrlar masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ularni milliy manfaatlarimiz, tarixiy qadriyatlarimiz, inson qadrining ulug'ligi kabi mezonlar asosida tarbiyalashga urg'u berilmoqda. Malakali kadrlarni saralash, ularga munosib mehnat sharoitini yaratish hamda adolat mezonlari asosida ish olib borishlariga keng imkoniyat yaratib berilmoqda.

– **Qariyb 40 yilga yaqin mehnat faoliyatingizdan olgan xulosangiz, sohaga kirib kelayotgan yosh kadrlarga tavsiyalaringiz...**

– Inson qay sohada mehnat qilmasin, halol bo'lsa, qilayotgan ishini vijdongan bajarsa, jamiyatda qadr topadi. Sud-huquq tizimi xodimlarining faoliyatiga kimningdir taqdiri bog'liq. Arzimagan e'tiborsizlik yoki shoshma-shosharlik bilan qaror chiqarish juda katta xatoga sabab bo'ladi. Shunday ekan, bu sohaning o'z mas'uliyati, yuki bor. Buni egniga adolat himoyachisi kiyimini kiygan har bir inson chuqur anglashi va bor bilim-tajribasini adolat yo'lida sarflashi lozim. Shundagina jamiyatimiz yana ham rivojlanib, taraqqiy etib boraveradi.

– **Samimi yohi suhbat uchun rahmat!**

SHOGIRDALAR USTOZ HAQIDA

Jamshid RAHMONOV, Toshkent harbiy sudi raisi:

– Ustozimiz Savronbek Tursunov haqida uzoq gapirish mumkin. O'qishni tugatgan vaqtimda shogird sifatida ish o'rganishdan boshlaganman. Sud sohasida yillar davomida orttirgan nazarimda amaliy bilimlari yosh kadrlar uchun juda katta xazina hisoblanadi. Respublikamizning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan ko'plab shogirdlari ustozning tavsiyalariga amal qiladi. Shu jumladan biz ham. Ma'lum vaqt birga ishlaganimidan doim xursand bo'laman. Bugungi kunda nafaqada bo'lsalar-da, hamisha biz bilan yelkama-yelka, targ'ibot tadbirlarida, yoshlar bilan uchrashuvlarda faol ishtirot etib kelmoqdalar. U kishidagi shijoat va g'ayrat kishini o'z sohasini sevishga va fidoyilik bilan mehnat qilishga undaydi. Hozirgi faoliyatimizni ham ustozimizning nasihat va o'gitlariga tayanib olib bormoqdamiz.

Akmal BOBONAZAROV, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi:

– Savronbek Tursunovni ilk bor sudyalikka nomzodlarni saralash jarayonlarida taniganman. O'sha vaqtida Respublika Harbiy suding sudyasi sifatida faoliyat olib borardilar. Nomzodlarni saralash jarayonlarida o'zlarining adolat mezonlariga qattiq amal qilishlari, yosh kadrlarga bo'lgan talabchanliklari, qolaversa, insoni sifatlari bilan alohida humrat qozonganlar.

Shu davrdan hozirgi kungacha ishlarni sifatli ko'rish, adolatli qaror qabul qilishda maslahat va ko'rsatmalariga tayanamiz.

Insoniy fazilatlariga keladigan bo'lsak, og'ir-bosiq, mushohadali, har bir ishini ko'p bor o'ylab qiladigan, adolat mezonlarini hamma narsadan ustun ko'radigan shaxs sifatida hurmatga sazovor. Bundan keyingi ish faoliyatimizda ham ustozning bizga bergan maslahat va amaliy ko'rsatmalariga ko'ra olib boramiz va bu o'zining ijobji natijasini ko'rsatib kelmoqda.

“Vatanparvar” muxbiri
Ro'ziqul OCHILOV
suhbatlashdi.

MUHTASHAM “ZARAFSHON” 110 YOSHDA

“Zarafshon” gazetasining 110 yilligiga bag’ishlangan tadbir Toshkentda, Milliy matbuot markazida bo’lib o’tdi. Shu kuni tadbirda “Zarafshon” bilan yonma-yon chiqayotganiga 105 yil to’lgan “Самаркандский вестник”, “Овоzi tojik” gazetalarining ijodkorlar jamoalari ham ishtirok etdi.



Yozuvchilar uyushmasining raisi Sirojiddin Sayyid, Mamatqul Hazratqulov, Abdusaid Ko’chimov, Mahmud Toir, Nodir Jonuzoq, Sherzodxon Qudratxo’ja, Bahodir Qobil, Sayyora To’ychiyeva, Halim Saidov, Muhammadjon Obidov, Habib Temirov, Anastasiya Pavliyenko va yana ko’plab elimizning ardoqli insonlarini bugungi bilgichlarning iborasicha “klassikaga aylangan” va bugun shu klassikaga qaytish jarayonlari boshlangan gazetachilik diydorlashtirdi. Oliy Majlis Senatining vakkili, bosma ommaviy nashrlarning bosh muharrirlari e’tiroflari, qutlovlari haqida to’xtalmoqchi emasmi.

Tadbir doirasida o’tkazilgan shaxmat musobaqasidan maqsad ham aslida diyor edi, desak, xato bo’lmaydi. “Zarafshon” gazetasini 110 yilligi munosabati bilan “Zarafshon” gazetasini kutubxonasi yana beshta (!) kitob – “O’zbek tilining chappa lug’ati”, “Zarafshon muharrirlari”, “Jurnalistligingni tashlama, bolam!”, “Samarqand akademiklari”, “Anqaboy Xudoybaxtov kim edi?” kitoblari bilan o’quvchilarini mammun etdi. Gazeta bosh muharriri, senator Farmon Toshevning e’tiroficha, shu turkumda

chiqqan “O’zbek tilining chappa lug’ati” uncha-muncha olimlar jazm qila olmaydigan salmoqli ishlardan biridir. Kitob ustida Rahmatulla Qo’ng’urov, Aleksandr Tixonov, Suyun Karimov ishlagan.

Bu haqiqatan ham nodir lug’at. Ba’zan o’zingizga qadrondan bo’lgan so’zlarni qidirib qolasiz. Qachonlardir, bolalikda siz juda yaxshi tanigan, ishlatgan so’zingizni izohli lug’atlarda topolmaysiz. Qo’limga tushgan yangi kitobga shoshilinch ko’z yugurtirib chiqadigan odatim bor. Ana shu shoshilinchda “O’zbek tilining chappa lug’ati”da “gelagay” so’zini ko’rib qoldim. Yopiray, nahotki bu men bilgan so’z?! Boshqa lug’atlarda, izohli lug’atlarda hech uchratmagandim, ammo biz bu so’zni ishlatar edik. Yangi tuqqan sigirning sutini qaynatsangiz, quyulib qoladi. Uni biz gelagay derdik. Ajabo, bu o’sha gelagaymi yo boshqa ma’nosi ham bormikan?

Uzr, mavzudan uzoqlashib ketdim. Kitoblar har doim meni o’z domiga tortib oladi. “Zarafshon” gazetasini kutubxonasidan yana bir kitob “Zarafshon muharrirlari” deb nomlangan.

Aziz o’quvchi, agar siz “Zarafshon” gazetasini bilan unchalik tanish



maxfiy hujjalardan bilib olishingiz mumkin. U chop etgan gazeta mazmuni, senzorlar temir tirmog’i ostidagi talashishlar, o’zimizning chalamullalar tomonidan uyushtirilgan hujumlar, muharrirning yurt ozodligi fikridan qaytmagani, ezgu g’oya uchun boshini jallod kundasiga qo’yishdan cho’chimasligi (“Haq olinur, berilmas!”), hamma-hammasi jonfidolik emasmi?”

Ha, bugungi “Zarafshon” ana shunday jonfidolik ustiga qurilgan. Gazeta dastlab “Samarqand” nomi bilan chop etilgan, keyinchalik “Hurriyat”, “Mehnatkashlar o’qi”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Kambag’allar tovushi”, mustaqillik yillardan boshlab “Zarafshon” nomini oldi.

“Zarafshon muharrirlari”da Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Saidrizo Alizoda, Hoji Muin, Haydarbek Abdujabborov, G’oz Yunuslar qatorida Sharof Rashidovni ham ko’rasiz.

Bugun haqiqiy tarix yozilmoqda, – deyiladi kitob so’zboshisida. – Jumladan, matbuotning tarixi ham. O’zbek sovet matbuoti olimlari barcha nashrlarni “dohiy” Lenin chiqargan varaqadan boshlashar edi. Bu tarixning noto’g’riligini ustoz Boybo’ta Do’stqorayev o’zining “O’zbekiston jurnalistikasi tarixi” tadqiqot darsligida (1917-yil noyabrgacha bo’lgan davr) isbotladi.

Zero, jadidlar matbuoti bolsheviklar o’tgan asr 1917-yilning noyabrida qilgan davlat to’ntarishidan keyin birdaniga to’xtamagan. Bu fursat Turkiston muxtoriyati qonga botirilgan 1918-yilning fevralida ham to’liq to’xtab qolmagan”.

Bugun bosma ommaviy axborot nashrlari murakkab jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Ana shunday qiyin sharoitda ham o’quvchilarini yo’qotmay, minglab nusxada chiqayotgan “Zarafshon” gazetasini qutlug’ yoshi bilan tabriklaymiz!

Ijodkorlar uchun Samarqand Farmon Toshev nomi bilan bog’liq. Samarqand adabiy muhitining qalbi, el mehrini qozongan ijodkor tadbirda uning sha’niga aytayotgan e’tiroflarni to’xtatib, u bilan yonmayon ijod qilgan, ayni kunda ham faoliyat yuritayotgan samarqandlik ijodkorlarni, matbuotchilarini nomnom tanishtirdi. Tadbirning poytaxtda tashkillashtirilganidan maqsad ham shu ekanini ta’kidladi.

Yurt dardi bilan yashashdan, ijod qilishdan charchamang, aziz samarqandlik hamkaslar!

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI?!



Shoir Abdulla Oripov satrlari va baftakor Mutal Burxonov kuy bastalagan madhiyamiz sadolari yangraganda barchamiz qalqib, tik turamiz. Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot... Atoqli shoir buyuk va muqaddas Vatanimiz go'zalligini, tarovatini, mehrini shu qadar haqqoniy tasvirlaganki, madhiyamiz sadolari yangraganda yosh-u qari qaddimizni g'oz tutgan holda g'urur, iftixor bilan uni jo'r ovozda ijro etamiz. Vujudimizni o'zgacha hislar chulg'ab oladi va hayajondan qalblarimiz junbishga keladi. Yuraklar hapriqadi, ko'zlar yoshlanadi...

Bayroq, madhiya va gerb davlat ramzları sifatida har bir insonga qanchalik qadri ekanligini so'z bilan ifodalash qiyin. Shuning uchun madhiyamiz sadolari ostida O'zbekiston bayrog'i ko'tarilgan har qanday vaziyatda qalbimizda sharaf, o'ziga xos faxr, yurtga mehr va sadoqat tuyg'ulari jo'sh uradi. Hatto skeptik (*atrofdagi barcha narsaga ishonchsz qaraydiganlar*) xarakterli shaxslar ham bundan mustasno emasligini kuzatish mumkin. Davlat madhiyasi ona allasiga qiyoslasak, aslo xato bo'lmaydi. Negaki har birimizning vujudimizda yurtga mehr va sadoqat tuyg'ulari, kindik qoni to'kilgan zaminga ona allasi ila kirib kelgan. Madhiya esa so'nggi nafasimizgacha ona Vatan allasi bo'lib qoladi. Shuning uchun

Vatanni ona allasi ila ko'z ochib ko'ramiz, anglaymiz va bir umrlik hayotiy yo'ldoshimiz sifatida davlat madhiysi bilan yashaymiz. Bularning ikkalasi ham isbot talab etilmaydigan haqiqatdir.

Hayotiy tajribalarga tayangan holda aytish mumkinki, har qanday kuy-qo'shiq inson me'dasiga tegishi mumkin. Ammo ona allasi va davlat madhiyasi har kuni eshitsak-da, hamisha vujudimizda o'zgacha hislar uyg'onadi, hayajondan qalblarimiz junbishga keladi. Bejiz "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonunda madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi, unga katta ehtirom bilan qarash har bir yurdoshimizning vatanparvarlik burchidir, deb belgilab qo'yilmagan. Xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka ishonch, boy tarixga ega o'tmishimiz, milliy an'ana hamda qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo hamijihatlik kabi umuminsoniy tuyg'ular tarannum etilgan go'zal satrlar va unga bastalangan kuy haqiqiy ma'noda vatanparvarlikning sof ko'zgusidir. Ozod va hur Vatanda ma'naviyatni yuksaltirish, yoshlarni yurtga sadoqatli fidoyi qilib tarbiyalashda uning o'rni qanchalik muhimligini tasavvur qilish qiyin.

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston, Ajdodlar mardona ruhi senga yor! Ulug' xalq qudrati jo'sh urg'an zam'on, Olamni mahliyo aylagan diyor!

Naqoratda takrorlanadigan ushbu jumlalarni har kuni uyimizda, maktablarda, harbiy qismlarda, erishilgan yutuqlar sharafiga O'zbekiston bayrog'i ko'tarilganda, davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari chog'ida eshitsak-da, uning jozibasi ortib boraveradi. Shu o'rinda bir hayotiy voqeani eslab o'tish o'rindilbo'lardi.

2022-yil. Surxondaryo viloyati, Termiz garnizoni. O'zbekiston va Qozog'iston harbiy xizmatchilarini ishtirokidagi xalqaro o'quv mashg'uloti. Tadbirning ochilish marosimida safda

turgan katta leytenant Rasul Hasanov (*hozirgi paytda kapitan*) davlat madhiyasiini jo'r ovozda aytgancha ko'zlaridan yosh oqardi. Ushbu holatni suratga oldim va tadbirdan keyin bu holat haqida uning taassurotlari bilan qiziqdim:

– Har safar davlatimiz madhiyasi ijro etilganda shu kabi ko'zlariningizda yosh paydo bo'ladimi?

– Qachondan boshlanganini aniq ayta olmayman. Maktabda o'qib yurgan kezlarim bo'lsa kerak. Yig'laganimni desam, g'alati eshitilar-u, ko'zlarimdan yosh oqishini o'zim sezmayman. Chetdan xunuk ko'rinar ekanmi?

– Kimdir sizni biror marta xunuk ko'rinar ekan deya kamsitganmi?

– Kamsitagan. Lekin... – katta leytenant Rasul Hasanov biroz muddat ko'nglidagini tashqariga chiqargisi kelmay, o'ylanib qoldi. Uning nima demoqchi ekanligini sezish qiyin emasdi.

– Vatan himoyasi ishonib topshirilgan harbiy libosdagi insonlar uchun noodatiy holat demoqchisiz-da?

– To'g'risini aytsam, shunday. Agarda kimdir shu uchun kamsitsa, ustimdan kulsa, aslo xijolat tortmayman. Men va safdoshlarim qo'riqlayotgan Vatanning madhiyasiini eshitganda, bayrog'ini o'pib, Qasamyod qabul qilganda, kindik qonimiz to'kilgan ona zamin tuprog'ini ko'zga surtganda yonog'imda yosh paydo bo'lishini yigitlik oriyati deb bilaman. Kimningdir ko'zidan menga o'xshab yosh oqmas. Ammo ishonch bilan ayta olamanki, davlat madhiyasi yangraganda har qanday insonning qalbida ta'riflanishi qiyin holat kechishi aniq. Qisqasi, madhiya ijrosi

paytidagi holatimni sizga so'z bilan qiyoslab bera olmayman...

Rasul Hasanovning gaplariga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Odamlarning xarakteri turlicha bo'lganidek, ularning qalb kechinmalari ham boshqa-boshqa ekanligini inkor eta olmaymiz. Shuning uchun boshimiz uzra O'zbekiston bayrog'i hilpirab, madhiyamiz ijro etilganda yonoqlarimizda yosh paydo bo'lishi xunuk holat bo'lib ko'rinxaydi. Ayniqa, sportchilarimiz g'alaba qozongach, ularga qo'shilib minglab yurdoshlarimiz yig'lagan paytda. Kapitan Rasul Hasanovga o'xshagan haqiqiy yurt posbonlarining yonog'idan yosh dumalaganda. Bu holat quvonch yoki qayg'udan emas, Vatanga bo'lgan cheksiz sadoqat ifodasi sifatida ro'y beradi. Buning uchun Davlat Bobonov, Elshod Rasulov, Ruslan Nuridinov, Bahodir Jalolov, Akbar Jo'rayev, Hasanboy Do'smatov, Shahobiddin Zoirov, Fazliddin G'oibnazarov, Oksana Chusovitina kabi sportchilarimiz, Rasul Hasanovga o'xshagan harbiy xizmatchilarimizni misol qilib ko'rsata olamiz.

Madhiyamiz muallifining "O'zbekiston" qasidasida Yurtim, senga she'r bitdim bu kun, Qiyo singni topmadim aslo, deb ifodalanganidek, yurtimizning, jonajon O'zbekistonimizning haqiqatan ham qiyosi yo'q. Umrboqiy satrlar muallifi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov siymosi, avlodlarga qoldirgan merosi asrlarga tatiydi. Davlatimiz madhiyasidan tashqari "O'zbekiston", "Men nechun sevaman O'zbekistonni?!", "Birinchi muhabbatim" kabi she'riy durdonalari hamisha barcha avlod vakillari uchun Vatan haqidagi eng jozibali, eng qadri va unutilmas asarlar bo'lib qolaveradi. U o'zidan keyin yuzlab, minglab shogirdlar qoldirdi. Adib tomonidan adabiyotimizga qoldirilgan boy meros esa yillar davomida adabiy ma'rifiy, ma'naviy mayoq bo'lib porlab turaveradi.

Kelajakda madhiyamiz muallifi haqida filmlar yaratiladi, asarlar yoziladi va bu jarayon rejissyor Muzaffarxon Erkinov ijodiy guruhi suratga olgan film bilan boshlanadi, desak, adashmaymiz.

**Asror RO'ZIBOYEV,
«Vatanparvar»**

AMIR TEMUR SIYOSATINING



O'ZIGA XOSLIGI

Uyg'onish davri tarixidan ma'lumki, ulkan ma'naviy salohiyat va ilmiy tafakkurning yuragi hisoblangan ona Vatanimiz jahonga mashhur sarkardalari, olim-u fozillarini, o'z davrining jismoniy va ma'naviy barkamol, vatanparvar farzandlarini kamolga yetkazganligi bilan dunyo mehvarida o'z o'rniiga ega.

Amir Temur ana shunday ulug' Vatan farzandi hisoblanadi. U bunyod etgan yirik me'moriy obidalar, bog'-rog'lar, yo'llar va ko'priklar, qoldirgan ulkan ma'naviy va madaniy amerosi ajdodimizning ma'naviy salohiyat sohibi ekanligini anglatadi.

XIV asning II yarmida yurtimiz aholisi turmush tarzi og'ir ahvolda edi. Xalq ko'plab majburiyatlar va soliqlardan, ajnabiylar zulmidan jabr tortmoqda edi. Mana shunday bir og'ir sharoitda Amir Temurning bosqinch mo'g'ullarga zarba berib, yagona markazlashgan davlat barpo etishi xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy ahvolini, turmush tarzining yaxshilanishiga xizmat qildi.

Amir Temurning tashqi savdo va iqtisodiy siyosatining eng e'tiborli jihat shundaki, bunda ajnabiy savdogarlar uchun hech qanday diniy xavf bo'lmagan. Misol uchun, xristian savdogarları ham o'lkamizda bermalol savdo ishlarini yo'ga qo'yanlar. Amir Temur tashqi savdo munosabatlari katta e'tibor qaratgan.

Amir Temur tomonidan Xitoydan Yevropagacha bo'lgan ulkan hududning bir siyosiy markaz ostida birlashtirilishi, shimoliy va janubiy yo'nalishlardagi savdo yo'llarini nazorat qilish, karvon yo'llarining har jihatdan ta'minlanishi, chunonchi, xavfsiz, ravon yo'llar, doimo xizmat ko'rsatib turuvchi karvonsaroyslar – bularning bari savdo-sotiqning gurkirab o'sishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan va

"Buyuk Ipak yo'li" nomi bilan mashhur, Sharq va G'arbni bog'lab turuvchi savdo yo'li yaratilishiga imkoniyat tug'dirgan.

Sohibqiron o'z davlatining ichki iqtisodiy asoslarini mustahkamlash uchun kattakatta bozorlarni buniyod etdi. Bunday bozorlar Samarqand, Buxoro, Shosh va boshqa ulkan shaharlarda joylashgan bo'lib, ular o'z davrida jahon bozoriga aylandi. Bu haqda turli xil manbalarda, jumladan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi"da ham muhim ma'lumotlar keltirganligini ko'ramiz. Uning yozishicha, bu bozorlar ichki tartib asosida bo'lib, har bir rasta ma'lum bir sohaga ixtisoslashtirilgan edi.

Binobarin, Amir Temur mamlakat boshqaruvida savdo-iqtisodiy taraqqiyotga alohida e'tibor qaratib, xususan savdo karvonlari o'tiladigan yo'llarda qattiq tartib o'rnatgan, savdogarlarga ziyon yetkazuvchi qaroqchi va talonchilarga ayovsiz chora qo'llagan va jazolagan. Amir Temur savdo karvonlari qatnovida savdo yo'llarining holatiga e'tibor qaratib, mamlakat rivoji yo'lida savdosotiqli rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan. Shu tariqa xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlab bergan. Mamlakatga xorijdan keluvchi savdogarlar uchun bir qator qulayliklar yaratish maqsadida har bir shaharda karvonsaroyslar barpo etib, ular tomonidan keltirilgan mollarni saqlashga alohida e'tibor qaratgan hamda butun mamlakatni o'zi tomonidan tayinlab qo'yilgan ishonchli bek va amirlar orqali idora etgan.

Amir Temur mamlakatni boshqarishda barcha toifa vakillaridan iborat Qurultoy, Davlat kengashi va Harbiy kengash maslahatidan keng foydalangan. "Kuch – adolatda" shioriga amal qilgan holda, yurt taqdiriga daxldor qarorlar qabul qilishda xalq fikrini, xohish-irodasini ham o'rgangan. Saltanatda birlik va birdamlikni doimo saqlash va ta'minlash maqsadida lashkarlarni o'z atrofiga birlashtrimoq uchun ba'zilariga muruvvat, mehribonlik qilgan, boshqalari bilan murosaga borgan.

Amir Temur ijtimoiy tenglik masalasiga ham alohida e'tibor qaratib, "Har bir mamlakatning raiyati bilan bo'lgan muomalada ularga nisbatan xolislik bilan ish tutsinlar, yana buyurdimki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo'il bilan gadolik yo'qotilsin", deb ta'kidlagan. Nazarimizda, bu farmon o'rtalashtirilishi, barcha tabaqadagi fuqarolar uchun mehnat qilishga huquqiy asos bo'lgan. Hattoki tilanchilik bilan kun ko'rvuchilar ham ijtimoiy mehnat bilan mashg'ul bo'lishlari shart bo'lgan.

Sohibqironning bu ko'rsatmasi esa iqtisodiy o'zgarishlarga, aholi turmush tarzining yaxshilanishiga keng yo'il ochib bergen. Shuning uchun bo'lsa kerak, XIV asrda kasb-hunarli bo'lishga intilish kuchaygan.

Amir Temur tarafidan tarqoq viloyatlar yagona davlatga birlashtirilib, markaziy hokimiyat tuzilib, bargarorlashgandan keyin mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlandi, savdo va hunarmandchilik rivojlanma boshladi, qo'shni va uzoqdagi mamlakatlar bilan savdo-xo'jalik aloqlari kengaydi.

Amir Temur tarixda mohir diplomat va davlatlar o'rtasida yaxshi munosabatlarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqlarni yo'iga qo'yish tarafdoi sifatida chuqur iz qoldirdi. U Yevropa va Osiyo o'rtasida o'zaro aloqlarni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Sohibqiron dunyoning turli mamlakatlari bilan aloqlar o'rnatdi: bir tarafdan – Xitoy, Hindiston, ikkinchi tarafdan – Fransiya, Angliya, shuningdek Usmoniyalar imperiyasi, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama o'zaro munosabatlarni mustahkamladi.

Amir Temur savdo-iqtisodiy munosabatlarni orqali xalqlar va mamlakatlar orasida yagona makon yaratishda misli ko'rilmanan yutuqlarga erishdi. U Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya qiroli Karl IV, Angliya qiroli Genrix saroylariga elchilar yo'lladi va o'z saroyida ispan, fransuz, inglez, xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlarning elchilarini qabul qildi.

Sohibqiron o'z davlatining kuch-qudratini mustahkamlash uchun birinchi navbatda harbiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazdi. Avvalgi davr donishmandlarining aql-idroki va g'oyalalariga asoslangan bu islohotlar jarayonida, ayniqsa, taraqqiyot uchun yagona davlat, o'zaro totuvlik, ishbilarmonlarga qulay mulkiy va huquqiy sharoit yaratish, savdo-sotiqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi.

Jahongir bobomiz yurt osoyishtaligi, erkin savdo-sotiq hududlarini barpo etish yo'lida ham jiddiy tadbirlar o'tkazadi. Mamlakat chegaralarini devor bilan o'rab, qo'rg'on qurdig'an, xususan 1380-yili o'zi tug'ilgan Shahrisabzda Oqsaroyni buniyod ettirgan.

Sohibqironning davlatchilik tarixini, fikrimizcha, uchta yirik bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi davr 1361–1381-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Amir Temur O'rta Osiyonni mo'g'ullar istibdodidan xalos qiladi. Barcha viloyat bek va amirlarini birlashtirib, saltanat tizginini o'z qo'l ostiga oladi. "Uch yillik", "Besh yillik", "Yetti yillik" yurishlar natijasida atrofdagi bir qator viloyatlarni hamda saltanatga xavf solayotgan davlatlarni o'z hukmronligi ostida birlashtiradi.

1381–1402-yillar Amir Temur davlati yuksalishining ikkinchi

davri bo'lib, bu hududi yanada kengaygan, iqtisodiy-siyosiy va harbiy nufuzi nihoyatda oshgan, o'sha davrning harbiy jihatdan qudratli davlati sanalgan Oltin O'rda bilan, shuningdek Sharq va Yevropaga dahshat solib kelgan Turk sulton Boyazid bilan bellasha oladigan davlatga aylangan davri edi.

Uchinchi davr 1402–1405-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Vizantiya, Yunoniston, Vengriya va Bolgariyani bosib olib, Sharqda, hatto Yevropadagi bir qator davlatlar – Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqalarga xavf solib turgan Turk sulton Boyazid Yildirimning "Yengilmas" deb nom taratgan qo'shinini tor-mor keltirilgan va Amir Temur davlatining jahoning eng yirik, qudratli va yuksak taraqqiy etgan saltanatiga aylangan davri bo'lgan. Saltanatning Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya va boshqa nufuzli davlatlar bilan savdo-diplomatik aloqları yo'iga qo'yildi. Sohibqiron juda katta hududni boshqarishning o'sha davr uchun eng mukammal tizimini vujudga keltirdi.

"Ulug' Amir narx-navo va ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxini tekshirib borar hamda hunarmandlar uyushmalarining unumli ishlashiga homiylik qilardi. U yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida butun Movarounnahrda yuk tashish va pochta xizmatini yaxshi yo'iga qo'ydi", deb yozadi fransuz olimi Lyusyen Keren.

Amir Temurning pul-moliya siyosatida qo'llagan choratadbirlaridan eng muhimi u tomonidan barcha hududlarda yagona pul muomalasi yo'iga qo'yilganligidir. Bu – butun saltanatning siyosiy, iqtisodiy jihatdan bir butun, yaxlit davlat ekanligini ko'rsatuvchi ramz, ya'ni belgi bo'lgan.

Mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan savdo-iqtisodiy islohotlar va xalqaro hamkorlik Amir Temurning bu borada olib borgan ishlarning mantiqiy, amaliy ifodasi va davomidir, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash odamlikning eng olyi mezonidir".

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, sohibqiron Amir Temur o'z davrida mamlakatda buniyodkorlik va yaratuvchanlik g'oyalari bilan birga xalq manfaatini yuksaltirdi. Demak, biz bobomiz Amir Temurning ruhini shod etish orqali uning hayotiy tavsiyalariga tayanishimiz zarur.

Tursunmurod MAMATQOBILOV,
Qurolli Kuchlar
akademiyasi dotsenti,
siyosiy fanlar nomzodi.
Podpolkovnik
Ilhom BEGIMQULOV,
katta o'qituvchi



Maxsus bo'linmalarni tayyorlash



XX asr oxiri va XXI asr boshida geosiyosiy muhitda sodir bo'lgan o'zgarishlar, harbiy-siyosiy vaziyatning tez o'zgaruvchanligi davlatlar o'rtaisdagi xalqaro, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka yangi tahidlarning kelib chiqishi bilan ifodalanadi.

Jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahidlar tobora kuchayib borish bilan bir qatorda, ro'y berayotgan murakkab harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasining bugungi kunda yanada dolzarbigini tasdiqlamoqda. Harbiy xizmatning zamonaviy rivojlanish xususiyati davlatlar armiyalari tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan noharbiy maxsus vazifalar hajmining tez o'sishi bilan tafsiflanadi. Bunday vazifalarni bajarishda asosan rivojlangan mamlakatlar armiyalarining maxsus bo'linmalar yoki maxsus operatsiya kuchlari keng qo'llanilmoqda.

Maxsus operatsiyalar kuchlari (MOK) dunyo mamlakatlari Qurolli Kuchlarining asosiy bo'g'ini va eng ilg'or hamda maxsus tayyorgarlikka ega bo'linmalaridir. Maxsus vazifalar muhimligi hamda bajarish usullari bo'yicha murakkabligi bilan ajralib turadi. O'z navbatida, maxsus bo'linmalar mavjud vaziyat sharoitlaridan kelib chiqib mustaqil ravishda ularga belgilangan hududlarda yuklatilgan vazifalarni bajarish bo'yicha taktik harakatlarni olib borish uchun mo'ljallangan.

Dunyoda yuz berayotgan murakkab vaziyatdan kelib chiqib, xorij mamlakatlari armiyalarda maxsus bo'linmalarini tayyorlashning zamonaviy shakl va usullari ularning mo'ljallanishi bo'yicha vazifalarni amaliy bajarishiga qaratilganligi hamda ushbu vazifalarning ko'lami tobora kengayib borishini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, maxsus bo'linmalarini tayyorlashning asosiy shakl va usullariga bo'lgan qarashlar va yondashuvlar kun sayin o'zgarib bormoqda. Masalan, Turkiya Qurolli Kuchlari MOK bo'linmalariga qo'yilgan vazifalar bajarilishini tashkillashtiruvchi tegishli boshqaruv organlari va bevosita bajarish uchun mo'ljallangan bo'linmalariga nomzodlarni tanlash va saralash tartibi borasida katta talablar belgilangan.

Turkiya MOK bo'linmaları Qurolli Kuchlar qo'mondonligining bevosita

bo'y sunuvdag'i bo'linma hisoblanadi. Ushbu maxsus bo'linmalarga Turkiya Qurolli Kuchlari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilardan yoki fuqarolar orasidan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan nomzodlar saralab olinadi. Maxsus bo'linmalar harbiy xizmatchilari qiyin va murakkab sharoitlarga moslashish ko'nikmalarini shakllantirish va oshirish maqsadida vaqtlanining ko'p qismini harbiy muassasada, ya'n'i tayyorlash markazida o'tkazadilar. Turkiya harbiy xizmatchilarining aksariyati maxsus bo'linmalarda xizmat qilishni xohlaydilar, lekin buning uchun ma'lum shartlar va talablar belgilangan.

Turkiya Qurolli Kuchlari qo'shinlaridagi harbiy xizmatchilar maxsus bo'linmalarga va MOK qo'mondonligining bevosita bo'y sunuviga ikki holatda o'tish mumkin. Birinchisi, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan ofitser, serjant yoki mutaxassis serjantlar kerakli tayyorgarlikdan to'liq o'tgan bo'lsa va sinovlar yakuni bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatsa. Ikkinchisi, Turkiya QK MOK maxsus bo'linmalarida xizmat o'tash istagini bildirgan fuqarolar orasidan eng ilg'orlari saralab olinadi. Bu amaliyat Turkiya Qurolli Kuchlari birinchisi marta 2016-yilda amalga oshirilgan bo'lib, saralashning muhim jihatlari shundaki, nomzodlar olyi o'quv yurtlarini bitirgan yoki maxsus maktablarda ta'lim olgan bo'lishlari talab etilgan.

Turkiya Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilar MOK maxsus bo'linmalariga o'tish uchun bir qator shartlar belgilangan:

fuqarolar ro'yxati asosida bakalavr darajasiga ega bo'lgan nomzodlar 27 yoshdan katta bo'lmasligi; muddatli harbiy xizmat askariga imtihon topshirishiga ruxsat berilmasligi; olyi o'quv yurtidan keyingi ta'limi tugatgan nomzodlar (*magistrilar*) 32 yoshdan katta bo'lmasligi; nomzodlar kamida 4 yillik bakalavr yoki maxsus kurslarni tamomlagan bo'lishi lozim;

Maxsus kuchlarga qabul qilingan harbiy xizmatchilarning o'qish davri 3 yil bo'lib, ushbu davrda parashut bilan sakrash, bomba zarbasi snayperi, tirk qolish, turli xil sinovlardan o'tish hamda murakkab sharoitlarga jismonan taylor bo'lishlari talab etiladi. O'qish davrida qo'shimcha 6 oylik ixtisoslashgan kursdan o'tishlari ham belgilangan. Maxsus bo'linmalar qabul qilinganlarning bo'y odatda 175-190 sm orasida, shuningdek ularning ko'rish qobiliyati juda yaxshi bo'lishi kerak.

Maxsus bo'linmalar shaxsiy tarkibining boshqa qo'shin harbiy xizmatchilaridan ajratib turadigan xususiyati shundaki, ular to'satdan va tezkor qarorlar qabul qilish orqali o'z vazifalarini amaliy tarzda bajaradi. Turkiya Qurolli Kuchlari maxsus bo'linmalariga nomzodlar dastavval saralash va tayyorgarlik kurslaridan o'tadi. Turkiya Qurolli Kuchlari maxsus bo'linmalarni tayyorlash ikki bosqichda, ya'ni boshlang'ich mutaxassislik va hudud sharoiti inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, nomzodlarning chidamliligini sinash bilan birga mutaxassislik kesimida nomzodlarni saralash imkoniyatini beradi. Tayyorgarlik yakunida sinov amaliyoti nomzodlarning tayyorgarligini baholash hamda bo'linmalar tarkibida keyinchalik xizmatni olib borishga moslashish imkoniyatini yaratadi.

Germaniya Qurolli Kuchlari asosiy e'tibor terrorizmga qarshi kurash hamda psixofizik va jangovar tayyorgarlikka yo'naltirilgan. Bundesver maxsus bo'linmalarini amaliy tayyorlash jarayoni katta tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi-ofitserlar rahbarligida olib boriladi. Maxsus bo'linmalarda xizmat qilish istagini bo'lgan shaxsiy tarkib dastlab maxsus tayyorgarlik bo'yicha to'liq kursni tamomlagan bo'lishi talab etiladi. Mazkur kusrlar davomida shaxsiy tarkibning umumiyyat tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratiladi va unga quyidagi talablar belgilangan:

shaxsiy tarkib mavjud vaziyatga tez kirib borishi va unga muvofiq mustaqil harakat qilishni o'rganishi, shu bilan birga, shaxsiy tarkibning harakatlari nizomlarga muvofiq qonuniy bo'lishi kerak; bo'linmada shaxsiy tarkib bir bo'lib, uyg'unlik va uyushqoqlikda harakat qilishi lozim; zamonaviy maxsus texnik vositalar bilan ishslashda yetarli bilimga hamda barqaror amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

Maxsus kurslarda shaxsiy tarkibni tayyorlash ikki bosqichdan iborat bo'lib, jumladan asosiy tayyorgarlik muddati 5 oy va maxsus tayyorgarlik muddati 3 oydan iborat.

Mazkur kurslarda harbiy xizmatchilar bilan jismoniy tayyorgarlik, harbiy ish va jang san'ati, taktika, qurollarni o'rganish va otish, huquq fanlaridan mashg'ulotlar olib boriladi. Ushbu fanlarni o'qitish metodikasi ilg'or tajribaga muvofiq, doimiy ravishda o'zgarib turadi. Bularning barchasi tayyorlov dasturining ajralmas qismidir.

Kurslarni tashkil qilishda shaxsiy tarkibning axloqiy va jismoniy tayyorgarligida eng yuqori natijalarga erishish, qo'l jangida tayoq, arqon, pichoq va boshqa maxsus vositalarni amalda qo'llashni bilish maqsadlari nazarda tutilan. Xuddi shu maqsadlar tog' tayyorgarligida (*alpinizmda*) ham amalga oshiriladi.

Umumiy tayyorgarlik o'qitilgan barcha fanlardan imtihonlar qabul qilish bilan yakunlanadi. Qoida tariqasida bitta imtihondan olingan "qoniqarsiz" baho harbiy xizmatchini maxsus bo'linmadan chetlatishga asos bo'ladi.

Italiya Birlashgan Qurolli Kuchlari MOK maxsus bo'linmaları XX asr 60-yillarda tashkil qilingan. Bugungi kunda ushbu bo'linmalar ehtimoliy dushman chizig'i ortidagi reydlar, qidirish va qutqarish, Birlashgan Qurolli Kuchlar manfaatlariga qarshi hujum harakatlarni bartaraf etish, Qurolli Kuchlarning harbiy operatsiyalariga yordam berish hamda maxsus razvedkani olib borish vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, ularga ikkinci darajali vazifalar ham belgilangan, xususan terrorizmga qarshi kurash, Italiya fuqarolarini evakuatsiya qilish va boshqalar.

Italiya Birlashgan Qurolli Kuchlari MOK maxsus bo'linmalarida xizmat qilish istagini bo'lgan harbiy xizmatchilarga dastavval asosiy maxsus kurslarda tayyorgarlikdan o'tish sharti belgilangan. Maxsus kusrlar o'z ichiga quyidagi bosqichlarni qamrab olgan:

- saralash bosqichi 2-3 hafta;
- umumiy bosqich, davomiyligi 33 haftani tashkil qiladi, unda nomzodlar bilan jismoniy tayyorgarlik, desant tayyorgarligi, taktika va jang asoslari, topografiya, texnik tayyorgarlik, tibbiy yordam asoslari fanlaridan mashg'ulotlar olib boriladi;
- ixtisosliklar bo'yicha tayyorgarlik bosqichi, davomiyligi 23 hafta;
- chuqurlashtirilgan tayyorgarlik bosqichi, davomiyligi 5 hafta, unda otish tayyorgarligi, omon qolish, amfibiya hujumi, turli jihozlar va maxsus vositalar bilan ishslash, parashut mashqlari, alpinizm hamda chet tillar bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi.

Bundan tashqari, maxsus kusrlar qo'shimcha tarzda dashmanni aniqlash, olvoni korrektirovka qilish, radioaloqa va harbiy topografiya bo'yicha tayyorgarlik bosqichini o'z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarda maxsus bo'linmalar bir qator maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib, shaxsiy tarkibni tayyorlashda asosiy e'tibor turli murakkab sharoitlarda yuklatilgan vazifalarni bajarishda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikda harakat qilishiga qaratilgan. Bugungi tez o'zgaruvchan vaziyat maxsus bo'linmalarni tayyorlashda shaxsiy tarkibning tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki bo'linmaga topshirilgan har qanday vazifa o'z vaqtida va sifatlari bajarilishi ko'p hollarda komandirning mohirligi va shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

X. XOLBOYEV,
Qurolli Kuchlar Harbiy meros va
zamonaviy tadqiqotlar instituti
katta ilmiy xodimi.
X. ALLABERGANOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi ilmiy
vazvodi oddiy askari

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi "Termiz" umumqo'shin dala-o'quv maydonida Sherobod, Termiz, Angor va Muzrabod tumanlari hamda Termiz shahridagi umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari bilan ikki kunlik yig'in o'tkazildi.

Dastlab yig'in ishtirokchilari Termiz garnizoni harbiy orkestri sadolari ostida tantanali kutib olindi va guruhlarga bo'lindi. Shundan so'ng ularga harbiy bosh-kiyimlar berilib, yig'inning maqsad va vazifalari tushuntirildi.

Birinchi kuni ishtirokchilar harbiy qismida harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar va ularga malakali mutaxassislar tomonidan saf tayyorgarligi



O'qituvchilar dala-o'quv maydonida

mashg'uoltlari hamda madaniyat markazida harbiy topografiya va jangovar tayyorgarlik bo'yicha nazariy mashg'uoltolar olib borildi.

Ishtirokchilar yig'inning ikkinchi kuni ertalabki badantarbiya mashg'uoltalaridan keyin harbiy qismda mavjud zamonaviy texnika va qurol-yarog'lar namoyishi bilan tanishdi hamda amaliy o'q otish mashqlarida qatnashdi.

Shu kuni Surxondaryo viloyati hokimi, harbiy-ma'muriy sektor rahbari Ulug'bek Qosimov chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining faoliyatlarini uchun harbiy xizmatchilar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-moddiy baza bilan yaqindan tanishdi va shu yerning o'zida takliflarni tingladi. Polkovnik Pol'latjon Sativaldiyev Surxondaryo viloyati madaniyat markaziga qarashli ko'chma madaniyat klubining harbiy xizmatchilar ixtiyoriga berilishini va harbiy

orkestr jamoasi tomonidan viloyatning barcha hududlarida, qolaversa, tog'li joylarida ham konsert dasturlari namoyishlarini o'tkazish orqali yoshlarda vatanparvarlik tuy'usini yanada oshirish bo'yicha taklif berdi. Ushbu taklif viloyat hokimi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'in yakunida faol ishtirok etgan bir guruhan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilariga faxriy yorliq va esdalik sovg'alar topshirildi.



✓ OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Faxriylar va yoshlar harbiylar huzurida

So'nggi yillarda milliy armiyamiz yoshlar nigohida chinakam mardlik va jasorat maktabiga aylangani hech kimga sir emas. Harbiy qismlarda barcha yoshdagি fuqarolar bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlar, ekskursiya va festivallar bu ishlar salmog'ining yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qismda ochiq eshiklar kuni bo'lib o'tdi. Unda Denov tumanida istiqomat qilayotgan faxriylar, harbiy pensionerlar va tumandagi umumta'lim maktablarining 500 nafardan ziyod o'quvchisi hamda "Vatanparvar" tashkilotining Termiz va Denov tumanlari o'quv sport-texnika klubi a'zolari ishtirok etdi.

Dastlab faxriylar va yoshlar harbiy qismida yaratilgan shart-sharoitlar va zamonaviy o'quv xonalari bilan yaqindan tanishdilar. Shundan so'ng "Vatanparvar" tashkilotining sport texnikalari, jihozlari va o'quv avtomobilari hamda zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog'lar namoyish etildi. Ayniqa, harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari hamda harbiy orkestrning vatanparvarlik ruhidagi kuy va qo'shiqlari yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

"Uch avlod uchrashivi"ga ularib ketgan tadborda katta hayot tajribasiga ega nuroniylar o'zlarini bosib o'tgan hayot yo'llari va faoliyatlarini xususida to'xtalib, bugun ayniqa yoshlar uchun sifatlari ta'lim olishlari-yu katta marralarni zabit etishlarida barcha imkoniyat va sharoitlar mavjud ekanini ta'kidladi.

Tadbir so'ngida musobaqlarda g'olib bo'lgan hamda faol ishtirok etgan bir guruhan yoshlar harbiy qism qo'mondonligi tomonidan faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlandi.



"Chegarachi" — besh karra champion!

Mamlakatimizda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Polo federatsiyasi hamda Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tuzilmalari hamkorligida turli musobaqa hamda turnirlar o'tkazib kelinmoqda.

Xususan, poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Universal Norses Stable" ot sporti klubida polo bo'yicha o'tkazilgan "Tashkent Open – 2023" championiat ham mazkur sport turini yanada rivojlantirish va mutaxassis chavandozlarning mahoratini oshirish maqsadida tashkil etildi. 7 ta jamoa g'oliblik uchun o'zaro bahs olib borgan mazkur turnirda hakamlik vazifasini Fransiya davlatidan taklif etilgan mutaxassislar amalga oshirdilar. Turnirning ochilish marosimida so'z olganlar ishtirokchi jamoalarga omad tilagach, musobaqlarga start berildi.

Turnirda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari, Milliy gvardiya va "Universal Janping" ot sporti klubni chavandozlaridan tashkil topgan jamoalar bilan bir qatorda, tarkibi ayol chavandozlardan iborat bo'lgan "Bibixonim" jamoasi ham ishtirok etdi. Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar yakuniga ko'ra, barcha raqiblaridan ustun kelgan "Chegarachi" terma jamoasi birinchilikni qo'lg'a kiritgan bo'lsa, 2-o'rinn Milliy gvardiya qoshidagi Toshkent ot sporti maktabi terma jamoasiga, 3-o'rinn Toshkent

shahri Milliy gvardiya jamoasiga va 4-o'rinn "Universal Janping" ot sporti klubni jamoalariga nasib etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Chegarachi" jamoasi kuch tuzilmalari o'tasida o'tkazib kelinayotgan polo musobaqlarida 5 yildan buyon g'oliblikni qo'ldan bermay, ketma-ket g'alaba qozonib kelinmoqda.

Tadbirga tashrif buyurganlar o'tkazilayotgan bunday sport musobaqlari kuch tuzilmalari o'tasidagi o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan birga, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash, ularni ot sportiga qiziqtirish hamda milliy brendimizga aylangan Qorabiyor zotli otlarning dovrug'i yanada oshirishga xizmat qilishini ham e'tirof etdilar.

— Bahslar nihoyatda shiddatlari va qizg'in tarzda kechdi. Chavandozlar bir-birlari bilan chinakamiga bellashdilar. Natijalar ham albatta, shunga yarasha bo'ldi. Meni quvontirgani, "Bibixonim" jamoasining ham bugungi turnirdagi ishtiroki bo'ldi. Qizlarimiz juda tartibli va chiroyli o'yin ko'rsatdi. O'ylaymanki, kelgusi musobaqlar davomida ham ayol chavandozlarimizning soni ortib boraveradi, — deydi podpolkovnik Bahodir Yunusov.

Musobaqa davomida harbiy orkestr va san'atkorlar tomonidan ijo etilgan vatanparvarlik, yurtga sadoqat hamda mehr-



oqibatni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

G'oliblar kuboklar, medallar hamda diplom bilan taqdirlandi.

"Chegarachi" jamoasiga navbatdagi g'alaba muborak bo'lsin, deymiz!

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



✓ CHIZGI

Ilk taassurot tasvirlari



Ana shunday buyuk kasb ostonasiga ilk muhim qadamlarni qo'yib, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan birinchi bosqich kursantlari Chirchiqdag'i dala-o'quv maydonida saf tortdi. Qurollasiлаha va texnikalar namoyishida, umuman olganda, bu kabi maydonlarda ularning ilk bor yig'ilishlari edi bu. Qurolli Kuchlar, DXX, IIV akademiyasi deysizmi, qisqa qilib aytganda, ko'plab harbiy oliygochlarning boshlang'ich bosqich kursantlari to'plangan, ularning ta'lim dargohlari turliha bo'lsa-da, oldilaridagi maqsad va istak yagona — o'z Vataniga sodiq o'g'on bo'lish, bildirilgan ishonchni oqlab, el koriga yarash.

Ishtirokchilar dastlab uzun qatorlarga terilgan qurollasiлаha, portlatish qurilmalari, xizmat itilaridan tortib texnikalargacha, xullas,

kelgusi faoliyatlarida foydalananadigan barcha harbiy ashyolar bilan mutaxassislar yordamida yaqindan tanishdi. Qizig'i shundaki, namoyishning katta qismida oliy harbiy ta'lim muassasalarining yuqori bosqich kursantlari nazariy va amaliy bilimlarni namoyish etdi. Yaqin yillarda esa ularning o'rnida bugungi yoshlar bo'ladi.

Tadbirning asosiy qismi — o'q otish mashg'ulotlariiga barcha qatori biz ham qiziqish bilan yo'l oldik. Kichik o'qotar qurollardan to katta zirhlisi texnikalargacha o'rinn olgan ushbu mashg'ulot o'zgacha ruhda o'tdi. Gumburlab uzilgan o'qlar borib nishonni yakson qilganidan so'ng beixtiyor chalingan gulduros qarsaklar-u hayqirishlar mashg'ulotlar barchaga birdekk manzur bo'lganidan darak berardi.



Ko'rgazmali namoyish atmosferasi kutiganidan-da go'zal bo'ldi. Birinchi xotiralar uzoq muddat yodda qoladi, deyishadi. Kursantlarda ilk taassurotlarni goldirgan ushbu ko'rgazma ham ular xotirasida umrbod muhrlanib qolsa, ajab emas. Ularning ko'zida yonib turgan olovdan o'z kasblariiga bo'lgan qiziqish yanada ortganini payqash qiyin emasdi.

Aslida o'zimming ham shu kabi tadbirlarda ilk bor ishtirok etishim. Qadamidan o't chaqnagan bo'lajak harbiy o'g'lolarning shijoatini ko'rib, yurt kelajagi ishonchli qo'llarda ekanligiga amin bo'ldim.

**Umidjon SAYFULLAYEV,
O'zJOKU talabasi**



ETIKDO'Z

(voqeiy hikoya)

Davron tong sahar azon tovushidan uyg'onib ketdi. Ustaxonasining kirlab ketgan derazachasidan tashqariga holsiz ko'z tashladi. Tun choyshabi hali ko'tarilmagan. "Namuncha vahli azon aytmasa bular!" azon tovushini eshitmaslik uchun ustidagi yillar davomida suv ko'rmanan choyshab bilan qulqlarini berkitishga harakat qildi, bo'lindi. O'rnidan qo'zg'alib, joyida o'tirgan ko'yi qo'llari bilan qulqlarini berkitgancha boshini egib, bir muddat tek qotdi...

Davronning poyafzal ustaxonasida yashayotganiga besh yildan oshdi. Tor-tanqis xonadagi eski oyoq kiyimlar, charm va poyafzal moyining badbo'y hidi uni allaqachon zabit etgan. Kiyimlari-yu vujudiga qadar o'tirib qolgan bu qo'lansa hid uni aslo bezovta qilmaydi. Kun bo'yi eski-tuski poyafzallar bilan shug'ullangan erkak kechga tomon amal-taqal qilib o'ziga joy hozirlaydi-da, pinakka ketadi. Qo'liga uch-to'rt so'm pul tegib, yemagi-yu bir shisha vinoga yetsa bo'lgani, qolgan hamma narsaga qo'l siltagan u...

* * *

– Chetga bekor ketyapsan, do'stim, – xorijga katta pul ilinjida yo'l olayotgan Davronni niyatidan qaytarishga harakat qildi do'sti Rahimbek. – Shu yerda ham tirkchililing yomon o'tayotgani yo'q. Qo'ligul kosibsani, mijozlarining ko'p. Bir xona bo'lsa ham uying, xotining, bolang bor. Yana nima yetishmaydi senga?

– Nima bo'lardi, bir xona uyni ikki xona qilgim keladi. Boshqalarga o'xshab tagimda mashinam bo'lsa deyman. Ko'p pul ishlab kelsam, buning nimasi yomon?

– Yosh ayoling bilan o'g'ilchangni qanday yolg'iz qoldirasan? Nazarimda, xotining ketayotganidan rozi emas.

– Xotin kishining aqli nimaga ham yetardi, o'ziga yarasha. Oila boshlig'i menman, qarorni o'zim chiqaraman. Munojatning qo'lidan chevarlik keladi, men pul ishlab qaytguncha, bemalol bir-ikki yil ro'zg'orni uddalab tursa bo'ladi. Keyin uzoqda bo'lsa ham, ota-onasi, yaqinlari bor. Tashlab qo'ymas.

– Turishingdan bilganingdan qolmaysan chog'i. Ehtiyyot bo'l, do'stim, qo'lingga pul tegib, har xil bo'limg'ur to'dalarga, ayollarga o'ralashib qolma.

– Bilasan-ku, yetimlikda hayot qiyinchiligini ko'rib katta bo'ldim. Bolaligimdan choyxonalarda yotiib, xizmatkorlik qilib, suyagim qotdi. Xotinim bilan bolamdan boshqa hech kimim yo'q. Yagona do'stim o'zingsan. Xavotir olma, maqsadim – birikki so'm pul jamg'arib, oilam bilan to'kis yashash...

* * *

Davron xorijda tun-u kun ishlab, o'zi istaganidek pul topa boshladi. Faqat jamg'arishga kelganda...

– Davron, sen bilan tanishmoqchi bo'lgan zo'rjuvon bor, nima deysan? Sochlari oltin, yuzlari qirmizi, bunaqasini hali ko'rmanansan! – birga ishlayotgan sheriklaridan biri Mahmud yigitning yuragiga o't yoqdi. – Xo'p desang, yoniga olib boraman. Faqat ozgina xarajati bor.

– Bu gaplarni qo'ysang-chi, undan ko'ra pul ko'paytirish haqida gapir, – uning gapiga parvo qilmadi Davron.

– Pul dardida erkakligingni unutib qo'yding chog'i. Shunday yosh, zabardast yigit... Esizesiz, – boshini sarak-sarak qilib, Davronning ustidan kula boshladi Mahmud.

Yonidagi sheriklari birin-ketin una qo'shildi:

– Itdek ishlab pul topganga yarasha yashashni ham bilish kerak, og'ayni!

– To'g'ri, xotining seni poylab turgani yo'q, ixtiyorning o'z qo'lingda!

– Majburlamanglar, yigitlar, balki, u kasaldir.

– O'zingga qarab gapir, otdek sog'lomman! – sheriklari ko'kragini kerdil Davron. – Qani, bir ko'ray-chi, men bilan tanishmoqchi bo'lgan o'sha ayol qanday ekan?

– Mana bu erkakcha gap bo'ldi! Kechga tomon bir maishat qilamiz...

* * *

Ishchilar uchun mo'ljallangan kattagina yemakxonasi. Atrofida turli xil korxonalar joylashgan bu joy asosan kechga tomon faollashadi. Ichkariga qadam qo'yan mijozni turli-tuman taomlar, spirtli ichimliklar, sigaretalarning achimtir hidi va albattra, yarim-yalang'och kiyingan ayollar qarshi oladi.

Maishat ilinjida yemakxonaga bosh suqqan yigitlar Mahmud boshchiligidagi chetroqdagi bo'sh stoldan joy oldi.

– Har xil ko'zlardan panaroqda bo'lganimiz ma'qul, – yonidagilarga tushuntirdi Mahmud. – Bu yerning ham o'z bo'rilari bor, – divanli stolda yastanib, atrofdagilarga bepisand nazar tashlab o'tirgan to'rt-besh chog'li barzangiga imo qildi u.

– Muhojirlarni yoqtirmaydigan to'da ular, – Davronqa shipshiddi yonidagi sheri.

– Vahm qilma, Nazr, birinchi kelishimiz emas-kul! – uni jerkib berdi Mahmud. – Hammasi bizni taniydi, shu kungacha muammo bo'limgan.

Yigitlarning suhabati oxirlamay, ularning oldida paydo bo'lgan ofitsiant ayol buyurtma olishga tutindi. Mahmud uning qulog'iga nimalarnidir pichirladi. Ko'p vaqt o'tmay, qomatlari kelishgan ikki juvon yigitlar davrasiga qo'shildi. Davron yoniga kelib o'tirgan oq-sariqdan kelgan, shirmon yuzli juvonning suzilib turgan ko'zlariga qaradi-yu, o'zligini unutdi...

Bu orada "bo'rilar" to'dasida sezilar-sezilmas bezovtalik bo'lib o'tdi.

– Qarasang-chi, Sasha, – yonidagi sheri qurdi turtdi qovoqlari uyilgan zahilbashara yigit, – senga tegishli Gulya anavi to'nkaning oldida nima qilyapti?

– Nima qilardi, vazifasini bajaryapti, – unga xo'mrayib qaradi ikki yelkasi bo'rtib chiqqan barvasta to'daboshi Nikolay. – Kelgindilarning ishlab topgani bizniki bo'lishi kerak. Bunday "xo'rak"ka har qanday erkak ilinadi. Gulya "to'r"ni mustahkam qilsa bo'lgani, u orqali muhojir bizni pul bilan ta'minlab turuvchi qulga aylanadi...

– Rahimbek, yaxshimisan, do'stim?

– Davron, senmi, ovozingni esdan chiqarib yuborishimga oz qoldi-ku, bormisan, qadrdon?

– Borman, do'stim, borman. Ish bilan bo'lib qo'ng'iroq qilishga ham vaqt bo'lmadi.

– Sog'-salomat ekansas, nega ikki yildan buyon xotining bilan o'g'lingdan telefon orqali bo'lsa ham xabar olmaysan? Ketganingga uch yildan oshdi, yig'ganining olib, balki, qaytarsan? Xotining sendan xavotir olib...

– Do'stim, shu masalada telefon qilib turgandim, – Rahimbekning so'zini bo'ldi Davron. – Men bu yerda... – nimanidir ayishga qiynalardi u.

– Nima, sog'lig'ing yomonlashdimi yoki pulingni oldirib qo'yib, kasodga uchradingmi? – hayajon ila undan javob kutardi Rahimbek. – O'ylama, hammasi yaxshi bo'ladi, do'stim, mendan qanday yordam kerak?

– Hammasi joyida, faqat... Sendan yashirmayman, men bu yerda oila qurdim. Bilasan-ku, ishqqa davo yo'q, deyishadi, yashash zavqini oshiq bo'lib bildim. Xotinim Munojatni oqsoq bo'lsa ham, hurmat qilardim. Ammo bu yerdagi sevgilim oldida... xillas, sening guvohligingda Munojatni taloq qilaman. Yashab turgan uy joy o'shaniki, istasa sotib,

yaqinlarining oldiga ketsin, istasa, erga tegsin.

Uning gapini eshitib toshdek qotgan Rahimbek bir muddatdan so'ng tilga kirdi:

– O'ylab gapiryapsanmi, ahmoq! Hech yo'q bolangni o'ylasang-chi, o'zingga o'xshab yetimlikda ulg'aysinmi?!

– Uning boshida onasi bor, eplab oladi. Xullas, oilam xususidagi qarorim senga omonat, yetkazib qo'y, Munojat meni kutmasin. Mana shu gaplarimni ovozli xabar qilib yuboraman, sobiq xotinimga taloq so'zimni yetkazasan. Sog'bo'l, Rahimbek!

Davron xotini va o'g'li xususidagi so'nggi so'zlarini aytdi-yu, telefonni o'chirdi. Rahimbek unga nasihat qilish uchun og'iz juftlagancha qolaverdi. Davronqa qilgan qayta-qayta qo'ng'iroqlari besamar ketdi.

Oylar o'tdi, shundan so'ng Rahimbek Davronning xotiniga yo'llagan ovozli xabarini yetkazishga majbur bo'ldi. Buni eshitgan mushtipar juvon bolasini bag'riga bosib, uzoq yig'ladi, kuydi-yondi, ammo eridan voz kechmadidi. "Men adashibman, yurtga qaytyapman", degan qo'ng'iroq'ini kutdi. "U qaytadi, albattra, qaytadi. Sizlardan boshqa hech kimim yo'q, deb doim ta'kidlardi, bizdan voz kechmaydi", degan o'yda "tiq" etgan tovush chiqsa, eshikka ko'z tutdi...

Ko'z yumib ochguncha oradan besh yil o'tdi. Munojat dastlab vodiyl tomonida yaqinlariga eri haqida og'iz ochmadi, o'g'ilchasi bilan amal-taql qilib kun o'tkazdi. Oshxonalarda idish yuvdi, pol artdi. Qayerda ishlamasin, bolasini asrab-avayladi. Biroq yosholigida avtohalokat sabab oyog'idan olgan jarohati tez-tez bezovta qila boshladi. Shundan so'ng yolg'izlik girdobida qiyalgan ayol uyini sotib, otanasi yoniga qaytishga majbur bo'ldi...

* * *

Poyezddan tushgan Davron yurtga eson-omon qaytgancha ishonmasdi. Yoshiga nisbatan qarib ketgan, ozg'in erkak vokzal tashqarisidagi o'rindiqda o'zi istamagan holda yum-yum yig'lardi, o'nglab bo'limas xatolaridan yig'lardi...

Davron tonggi azon tovushidan uyg'onib ketdi. Qo'llari qaltirab quloqlarini berkitishga urindi. Har gal nomozga – hidoyatga chorlovchi bu ovoz hayotini izdan chiqargan gunohlari, o'zganining xasmiga aylangan ayoli, boshqa bir insонning dilbandi bo'lib ulgurgan o'g'lini ko'z oldiga keltiraveradi, keltiraveradi...

Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahri mezbonlik qilgan og'ir atletika bo'yicha 88-jahon championati bahslari yakunlandi. Unda qatnashgan yurtimiz polvonlari shohsupaga ko'tarilish barobarida "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'lida qimmatli reyting ochkolariga ham ega bo'ldilar. Jumladan, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Ruslan Nuridinov mazkur dunyo birinchiligining 2 ta medalini qo'lga kiritdi.

OG'IR VAZNLI POLVONLARIMIZ



JAHON MIQOSIDA TENGSIZ!

Gazetamizning avvalgi sonida yengil va o'rta vaznli atletlarimizning Saudiya Arabistonida o'tkazilayotgan og'ir atletika bo'yicha 88-jahon championatidagi ishtiroti va umuman, yurtimiz polvonlarining avvalgi dunyo birinchiliklari erishgan natijalari xususida batapsil to'xtalgan edik. O'tgan haftaning so'nggi kunlari Ar-Riyod shahrida og'ir vaznli atletlar bahslarni davom ettirdi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Akbar Jo'rayev hamda Ruslan Nuridinov muvaffaqiyatlari qatnashdi.

Ma'lumki, MVSM vakili Ruslan Nuridinov 2012, 2013, 2015-yillarda og'ir atletika bo'yicha Osiyo championi, 2013 va 2015-yillarda jahon championi bo'lgan. 2016-yil o'zbek atletlari orasida ilk marotaba Olimpiya rekordini yangilagan holda, Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlarida g'oliblikka erishgan. 2018-yilgi XVIII Osiyo o'yinlarida zafar qozongan. 2018–2021-yillar mobaynida jarohatlar jabrini chekkan armiyamiz sportchisi 2022-yili Kolumbiyaning Bogota shahrida o'tkazilgan og'ir atletika bo'yicha dunyo birinchiligidagi biz uchun yana bir bor bosh qahramonga aylandi – faoliyati davomida uchinchi marta jahon championati shohsupasiga ko'tarildi. -109 kg vazn toifasida bahslarda qatnashgan atletimiz dast ko'tarish mashqida 177 kg, siltab ko'tarishda 220 kg, umumiy hisobda 397 kg ko'sratkich bilan mutlaq jahon championi bo'ldi. MVSM pahlavoni g'alabasi sharafiga Bogota sport maydonida O'zbekiston madhiyasi yangrab, bayrog'imiz yuksak ko'tarildi. O'zbekiston og'ir atletika federatsiyasining 2022-yil yakunlari va joriy yil rejalariga bag'ishlangan yig'ilishida armiyamiz sportchisining ana shu muvaffaqiyatlari ham tilga olindi – Ruslan Nuridinov o'tgan mavsumning "Eng yaxshi erkak sportchi"si, deya e'lon qilindi va mukofotlandi. Shu bois yurtimiz sportsevarlari qatori jahonning bir qator sport manbalari xodimlari, og'ir atletika mutaxassislari ham Ruslanning Ar-Riyod shahridagi chiqishlarini o'zgacha bir qiziqish bilan kuzatishdi. Armiyamiz sportchisi ushbu e'tiborga loyiq tarzda harakatlanib, mutaxassislar ishonchini oqladi va -109 kilogrammgacha bo'lgan polvonlar o'rtaсидаги bahslarga o'zgacha bir zavq bag'ishladi.

Xususan, u dast ko'tarish mashqida avvalgi dunyo birinchiligidagidan 3 kg ko'proq, ya'ni 180 kg natija qayd etdi. Lekin... ushbu natija Ruslanga bu safar oltin medal emas, balki 4-o'rinni hadya qildi. To'g'ri, bu borada bronza medalga egalik qilgan ozarbayjonlik Dadash Dadashbaylining natijasi ham 180 kg bo'ldi... qo'shimcha ko'rsatkichlar esa yurtdoshimizni sovrinsiz qoldirdi. Shundan so'ng Ruslan bor kuch va imkoniyatlarini siltab ko'tarish mashqida ishga soldi va 227 kg natija qayd etib, barcha raqobatchilarini ortda qoldirgan holda, oltin medalni qo'lga kiritdi! Umumiy hisobdagagi 407 ($180+227$) kg natija esa MVSM vakiliga jahon championatining yana bir sovrini – kumush medalni taqdim etdi. Ushbu vazn toifasida jahon championligiga o'zbekning boshqa bir o'g'loni Akbar Jo'rayev erishdi. U dast ko'tarish bahslarida 189 kg natija bilan oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, siltab ko'tarishda 226 kg shtangani o'ziga bo'yundirib, Ruslandan so'ng 2-o'rinni egalladi va kumush medal bilan taqdirlandi. Ikkikurash bo'yicha 415 kg.lik natija esa polvonimizga championlikni taqdim etdi. Shunday qilib, Akbar Jo'rayev musobaqani 2 ta oltin va bitta kumush, Ruslan Nuridinov esa bittadan oltin va kumush medal bilan yakunladi. Yana shuni ta'kidlash joiz, Akbar Jo'rayev aynan Ruslan Nuridinovdan so'ng ikki karra jahon championi bo'lgan og'ir atletikachi sifatida o'zbek sporti tarixiga kirdi:

1. Akbar Jo'rayev (*O'zbekiston*) – 415 (189+226) kg.
 2. Ruslan Nuridinov (*O'zbekiston*) – 407 (180+227) kg.
 3. Dadash Dadashbayli (*Ozarbayjon*) – 403 (180+223) kg.

(180+223) kg.

"Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'lida litsenzion xarakterga ega bo'lgan mazkur musobaqada O'zbekiston erkaklar terma jamoasi 4 ta oltin, 2 ta kumush va bitta bronza, jami 7 medal jamg'arib, bu borada Xitoydan so'ng ikkinchi, ochkolar klassifikatsiyasi bo'yicha esa Armaniston, Xitoy, Eron, Kolumbiyadan keyin beshinchi pog'onadan joy oldi. Eslatib o'tamiz, mazkur jahon championatida Akbar Jo'rayev va Ruslan Nuridinovdan oldin hamyurtimiz Muhammadqodir Toshtemirov ham muvaffaqiyatlari qatnashib, dast ko'tarish bo'yicha oltin, ikkikurash natijasiga ko'ra esa bronza medal sohibiga aylangandi.

Rasul JUMAYEV, «Vatanparvar»

SHOHSUPA

(xabarlar)

“XANCHJOU – 2022”



19th Asian Games
Hangzhou 2022

E'tiborlisi, qit'aning 45 ta davlatidan 12 417 nafar sportchi ishtirok etishi kutilayotgan bu galgi Osiyo o'yinlari dasturi yozgi Olimpiya o'yinlaridan ham keng. Zero, 2021-yili Tokioda tashkil etilgan XXXII yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirokchi sportchilar soni 11 656 nafarni tashkil etgandi. XIX yozgi Osiyo o'yinlari mobaynida 40 ta sport turining 61 ta yo'nalishida 474 ta medal jamlanmasi uchun kurash kechadi. 23-sentabr – 8-oktabr kunlari bo'lib o'tadigan "Xanchjou – 2022"da tarkibidan MVSM vakillari ham o'rinni olgan O'zbekiston sport delegatsiyasi 38 ta sport turi bo'yicha 370 nafardan ziyod sportchi bilan qatnashishi rejalashtirilgan.

SPORT KURASHLARI



 Serbiya poytaxti Belgrad shahrida sport kurashlari vakillari uchun "Parij – 2024" yo'lidagi uchta o'tish musobaqasining dastlabki dovoni hisoblanmish jahon championati bahslari qizg'in pallaga ko'tarildi. Erkin kurashchimiz Javrail Shapiyev (-86 kg) bronza medal uchun kechgan bahsda eronlik Hassan Yazdanicharatiga imkoniyatni bor berdi. Olimpiada yo'llanmasi uchun tashkil etilgan bellashuvda esa Bahrayn sportchisidan ustun kelib, faoliyatida ikkinchi bor 4 vilifikning muhim musobagasiiga yo'llanma oldi.

SAMBO



 Rossiyaning Ufa shahrida sambo bo'yicha Gran-pri musobaqasi bo'lib o'tdi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari xalqaro musobaqaning 2 ta oltin, 5 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Jumladan, jangovar sambo bahslarida g'oliblik shohsupasiga ko'tarilgan sportchilarimiz Sharif Kushayev (-71 kg) va Islom Nosirov (+98 kg) g'alabasi sharafiga O'zbekiston madhivasi yangrab bayrog'iimiz yuksaldi.


OT SPORTI



A black silhouette of a horse in mid-air, performing a high jump over a vertical wooden post or barrier. The horse's front legs are extended upwards, and its back legs are pushing off the ground.

Ot sportining uchkurash yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Muhammaddiyor Raimjonov Polshada o'tgan xalqaro musobaqada sovrindorlar safidan joy oldi. Chavandozimiz Gayevnik Kolyonya shaharchasida o'tgan konkur turnirining 125 sm balandlikdagi to'siqlardan sakrash dasturida "Viola" laqabli tulpori bilan uchinchi ko'rsatkichni qayd etdi va musobaqaning bronza medali bilan taqqidirlandi.

BOKS



Dog'istonning Kaspiysk shahrida M. Umaxanov xotirasiga bag'ishlangan XXII an'anaviy turnir o'tkazildi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari bitta oltin va 5 tadan kumush hamda bronze ismi 11 medallni ga'lga kiritdi.

VOLLEYBOI



Cohil voleyboli bo'yicha Bangladeshda o'tkazilgan "CAVA Beach Volleyball Zonal Tour-Open – 2023" musobaqasida 6 ta davlatdan 12 ta jamoa ishtirok etdi. Finalda hindistonliklarni 2:0 hisobida dog'da qoldirgan O'zbekiston ayollar iamoasi turnirda q'oliblikka erishdi.

MERGANLARNI TAYYORLASHNING MUHIM JIHATLARI



Merganlarni tayyorlash, bu niqoblanish, kuzatish va aniq otish san'atining majmuasidir. Ushbu san'atning barcha elementlarini eng yuqori darajada rivojlantirish uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lish kerak. Mergan janglarda har doim ayyorlik, zukkolik va topqirlik sifatlarini qo'llashi, o'zini nihoyatda sovuqqon, sabrli va erkin tutishi shart, chunki shunday bir naql bor: "Mergan o'qi tarixni o'zgartirishi mumkin", deydilar.

Har bir otuvchi ham mergan bo'la olmaydi, shuning uchun merganlikka mutaxassislar orasidan qat'iyatlari, sabr-bardoshli, jismonan chiniqqanlar tanlab olinadi.

Bugungi kunda zamonaviy armiya oldida turgan ko'plab vazifalarni bajarishda merganlar alohida mavqeda turadi. Hozirgi zamon urushi ilgarigi urushlardan tubdan farq qiladi, ya'ni zamonaviy texnologiyalarining jadal rivojlanishi harbiy ishlarni ham o'zgartirmoqda. **Ana shunday sharoitda merganlar va professional otuvchilarni tayyorlash oson ish emas, buning uchun zamonaviy qurollardan, trenajyorlardan foydalanish, doimiy mashq qilish zarur.** Merganlarni lavozimiga tayyorlashda maxsus kuchlar guruhlari orasidan ko'ngillilar saralab olinib, tanlov psixologik sinov, kuzatish, eshitish, aqliy salohiyat, jismoniy kuch sifatlari inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida merganlar alohida maxsus elementlar bo'yicha tayyorlanishi mumkin: otish, nazorat qilish, taktika, matematika, jismoniy tayyorgarlik, har bir kursantga individual yondashuvni hisobga olgan holda, har xil fanlar bo'yicha kundalik mashg'ulotlar orqali.

O'q otish, jismoniy, taktik va boshqa mashg'ulotlar turlarini o'z ichiga olgan merganlar tayyorgarligi axborot tayyorgarligini doimiy ravishda takomillashtirish bilan to'ldirishi kerak, uning muhim bir jihatni razvedka, kuzatish va ma'lumot to'plash, ish yuritishda nishon tanlashdir. **Axborot texnologiyalaridan foydalanish merganlarni turli vaziyatlarda qaror qabul qilish uchun tayyorlash usulini soddashtirish, yangi bosqichga o'tkazish va tezlashtirish imkonini beradi.** Maqsad to'g'ri tanlangan, hisob imkonni boricha aniq bo'lishi, fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini doimiy ravishda takomillashtirishi kerak.

Kompyuter texnologiyalari bilan ishlashni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish ma'lumotni o'zlashtirish tezligini oshirish imkonini beradi, virtual simulyatorlardan foydalanish aniqlik, zukkolikni rivojlantirishda eng afzal treningdir. Maxsus dasturiy ta'minot va mashqlar mergan uchun zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarini: **fikrlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.** Qulay pozitsiyani, nishonni to'g'ri tanlash, hudud relyefini o'rganish, ob-havoni, nisbiy namlikni, shamol yo'nalishlarini, qiyalik burchak yoki nishongacha bo'lgan masofalarni aniq bilish merganning asosiy vazifalariga kiradi.

Shuning uchun mashq'ulot jarayonida mashq va topshiriqlarni tanlashda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bunga axborot bilan, xususan kompyuter texnikasi va maxsus dasturiy ta'minot bilan ishslash yordam beradi. **Qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mashq'ulotlari relyefni, oldinga silijishning mumkin bo'lgan yo'llarini, yashirin yondashuv va manyovrlarni, dushman harakatlarini tahlil qilish uchun zarurdir.** Ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va tanlash qobiliyatining yuksakligi muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi. Bu jihatlar zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishslashning eng sodda va oson tatbiq qilinadigan usuli – merganlarni axborot bilan ishslashga o'rgatishning ahamiyati va zarurligini ko'rsatadi.

Jangovar bo'linmalar ishtirotidagi harbiy mojarolar tahlili yangi yondashuvlarni izlashga majbur qiladi. Jangovar sharoitda qo'rquv va boshqa insoniy his-tuyg'ular merganlarni tezkor qarorlar qabul qilishdan chalg'itishi mumkin.

Shuning uchun yuqori samara beradigan mashq'ulotlar uchun mashqlarni tanlashda va zarur ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- merganlarning aqliy va ijodiy qibiliyatini, zukkolikni rivojlantirish zarur;
- qaror qabul qilish qobiliyatini avtomatizmga keltirish, ya'ni ekstremal sharoitlarda fikrlash vaziyat qanday bo'lishidan qat'i nazar faol ishlashi kerak.

Psixologik barqarorlik bo'yicha tirishqoqlik bilan mashq'ulot o'tkazilsa ham, gohida mergan dushmanga yaqin joyda ishlaganda, unga maksimal zarar yetkazish uchun dushmanning joylashgan joyini batafsil tahlil qilish kerak bo'lganda muvaffaqiyatsizlikka erishiladi. Buning oldini olishga otish joyini to'g'ri tanlash, yer sharoitlaridan foydalanish, kuzatuv joyini belgilash uchun nostandard yechimlarni intellektuallik bilan tanlash maxsus kompyuter simulyatorlari va dasturlari yordamida ishlab chiqilishi yordam beradi. Avtomatizm nisbatan qisqa jarayon bo'lsa-da, bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi, jumladan, **vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash, baholash, yechim topish, qaror qabul qilish va uni amalga oshirish, o'z harakatlarini nazorat qilish va baholash;** yuqori sifatlari niqoblanishni o'zlashtirish mohir merganlarni tayyorlashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Keng dunyoqarashga ega bo'lish hamda niqoblanishning nazariy va amaliy asoslarini bilish mergan ishining ajralmas qismidir. Bu borada ularning tanlovi, atrof-muhitga mos niqoblanish usullarini tezkor tahlil qilish, hududni diqqat bilan o'rganib, niqoblanish nuqtayi nazaridan baholash va ma'lum bir niqoblanish turini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishni



o'z ichiga oladi. Bu tinimsiz mehnat, mashq bilan yuzaga chiqadigan jarayon bo'lib, ko'nikmalar "noto'g'ri pozitsiyani jonlantirish", dushmanni "yolg'onga ishontirish" uchun eng qulay paytni, o'q otish vaqtini tanlashda ham yordam beradi. Tayyorgarlik jarayonidagi mashqlar aniqlikni rivojlantirishga, pozitsiyani egallash va tark etish uchun eng qulay vaqtini tanlashga yordam berishi kerak.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish dushmanni yo'ldan ozdirish, uning rejalarini buzish, qiyin ahvolga solib qo'yish, illiyuziya, yolg'on g'oya yaratish uchun zarur. Trening davomida **diqqatilik, tezkor zukkolik, aniq savol bilan vazifalarni tahlil qilishga, shuningdek, jang maydonidagi hodisa, harakat va o'zgarishlarni payqash va vaziyatga qarab tez qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshirishga** jiddiy e'tibor qaratilishi kerak. Kuzatuv malakalarini kompyuterda maxsus tanlangan topshiriqlar yordamida rivojlantirish mumkin, bu esa kiritilgan ma'lumotlarni baholash, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va undan o'z manfaati yo'lida foydalanish imkonini beradi. Amalda merganlarning ushbu faoliyat nuqtalari daqiqalar yoki soatlarni oladi.

Merganlik quyidagi muhim va zarur fazilatlarni talab qiladi:

- motivatsiyaning ravshanligi (*murakkab ish vazifasini ixtiyoriy ravishda hal qilish istagi*);
- o'ziga ishonch, o'zini o'zi qadrlashning adekvatligi;
- ijtimoiy yetuklik (*mas'uliyat, realizm, qiyin vaziyatda qat'iyatlilik, xulq-atvorning moslashuvchanligi*);
- aqliy faoliyat (*umumiy fikrlash darajasi*);
- aqliy faoliyatga qarshilik, aqliy nazorat darajasi, istak, cheklash, o'zini tuta bilih.

Bugungi kunda merganlik san'atiga qiziqish tobora ortib borayotgan bir vaqtida bu kasbga nomzodlarning qiziqishlari, qobiliyatlarini va irodasiga qarab saralab olish merganlikni san'at darajasiga olib chiqadigan mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Kapitan Behruz ABDURAHIMOV, Merganlar tayyorlash markazi katta o'qituvchisi

DAFTAR JILDIDAGI



“madaniyat”

O'zaro suhbatlarda, gurunglarda tez-tez tilga olinayotgan mavzulardan biri “ommaviy madaniyat” bo'lib goldi. Davning shiddat bilan o'zgarib, fan-texnikaning jadallik bilan taraqqiy etishi, tabiiyki, ko'plab muvaffaqiyatlarga zamin yaratdi va bu jarayon uzlusiz davom etmoqda. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham borki, u bashariyatni fikrashga, chuqurroq mushohada yuritishga majbur qiladi.

Madaniyat – bu insoniyatning shakllanishida, turli tamaddunlarni yuzaga keltirishida muhim mexanizm sanalishi bilan birga odamlarning o'zaro aloqa almashish, bir-biriga yordam qo'llini uzatish, suyash kabi odamiylik amallarini ham tasniflaydi. Bu tushuncha arabcha “madina” so'zidan olingan bo'lib, “shahar(/ashish)” degan ma'noni anglatadi. Albatta, ushbu so'z atamaga aylangan davrda shaharlar o'zining ijtimoiy-siyosiy va moliyaviy jihatdan barqarorligi bilan yuksak darajaga ko'tarilib ulgurgandi. El-u yurtning koriga yaraydigan, uni boshqarib, xalqaro munosabatlarga kirishadigan rahbarlar, olim-u fuzano, ahli ulamo, shoir-u nosirlar yashagan shaharlar shu bois ham madaniyat so'ziga zamin bo'lgandir.

Lotin tilidan olingan “culture” (“kultura”) so'zi yerga ishlov berish, parvarishlash degan ma'nolarni anglatadi. Unda ham mohiyatan yetuklikka erishish, komillik kasb etish tarbiyadan, odob-axloqdan boshlanadi, degan uqtirish mujassam. Ammo yillar o'tishi bilan fan-texnikaning jadal rivojlanishi, inson tafakkuridagi noyob qirralarning ketma-ket ochilishi va yangi-yangi olamshumul kashfiyotlarning yuzaga kelishi bilan madaniyat tushunchasi ham “madaniyashib” bordi. Bir vaqtlar shaharliklar uchun umumiy bo'lgan madaniyat yillar o'tishi bilan yuqorida omillar ta'sirida maydalashib ketdi. Endilikda madaniyat tushunchasi odob-axloq zaruratidan go'yoki martabaru shon-shavkatni belgilovchi unsurga aylandi. Mehmon kutish, ovqatlanish, musiqa tinglash, jamoat transportida yurish va hokazo kabi xatti-harakatlarning o'z “madaniyati” yuzaga keldi. Bugun ko'plab xorijiy va mahalliy nashrlarimiz

e'tirof etayotgan jarayon – globallashuv davrida madaniyatning tarqalish tezligi aq bovar qilmas darajada, uni oddiy ichimlik qopqog'iga ham “yojashtirish” mumkin.

“Ommaviy madaniyat” ayni damda ko'pchilik yoshlar ergashayotgan zamonaliv qadriyatlar majmuasi sanaladi. Ommaviy madaniyat, pop-madaniyat, bir so'z bilan aytganda, oddiy avom madaniyatidir. U musiqa, sport va ommaviy axborot vositalari ko'magida yoyiladi. Ommaviy madaniyat o'zining ohanrabosi, jimmimadorligi va yengil hayotni “tufta” qilishi bilan turli dunyoqarash va kasb-kor sohibi bo'lismish aholining qiziqishini qozonadi. Unga har kuni, har lahzada, har bir qadamda duch kelishimiz mumkin.

Maktab, kasb-hunar kollejlarida va umuman, ta'lim muassasalarida bilim olayotgan o'quvchilarimiz va talabalarimiz foydalanadigan daftalar jildiga e'tibor beradigan bo'lsak, “ommaviy madaniyat”ning eng oddiy va xavfli ko'rinishiga duch kelamiz: estrada san'atkolarinining turli muqomdagi suratlari bilan bezatilgan daftar jildiga tikilib, darsni tugallovchi o'g'il-qizlar allaqachon “ommaviy madaniyat” “asir”lariga aylanmagan, deb kim ayta oladi?! Bola uchun “madaniyashish jarayoni” ota-onasi bozordan daftar xarid qilib, uni farzandiga foydalanishi uchun bergen fursatdan boshlanarkan. Hali shakllanib, oq-u qorani ajratib ulgurmagan murg'ak tasavvur uchun daftar jildidagi san'atkorning “ideal” bo'lib gavdalaniishi kishini o'ya toldiradigan holdir.

Qadimda madaniyat ikki xil ko'rinishga ega bo'lgan: oliy tabaqa vakillari orasidagi hamda oddiy xalq o'rtaisdagi madaniyat. Ular boshida bir-biridan keskin farq qilgan, zodagon olilar o'z surriyotlariga kiborlar madaniyatini alohida e'tibor bilan o'rgatgan. Aynan shu tomonlari bilan keyinchalik ular oliynasablarga da'vo qilganlar. Ular, tabiiyki, oddiy xalq madaniyatini tan olmagan va ularning turmush tarzi, mehnat faoliyatidagi munosabatlarga past nazar bilan qarashgan.

Vaqt o'tib, vaziyat biroz o'nglana boshlandi. Bu mavzuni ilmiy-nazariy

jihatdan o'rganib, asl mazmun-mohiyatini ochishga ahd qilgan mutaxassislar oqimi vujudga kela boshladи. Faylasuf yozuvchilardan Xose Ortega-i-Gassetning “Olomon isyon”, Karl Yaspersning “Davrning ruhiy holati” singari qator yirik ko'lamdagи kitoblari madaniyat tushunchasi aslida nima ekanini sharhlab berdi. Ayniqsa, Osvald Shpenglerning “Yevropa quyoshining botishi” asarida “ommaviy madaniyat” niqobidagi aksilinsoni oqimning kuchayishi asosli dalillar bilan ochib beriladi. Patrik Jozef Byukenen “G'arb halokati” asarida mavzuni chuqurroq ta'riflaydi: “Bu kabi “madaniyat”larning paydo bo'lishi va keng yoyilishiga bosh sabab shuki, G'arb olamidagi azaliy qadriyat va an'analing, tarixan boy zaxiraga ega ma'naviyatning yemirilishi, inqirozga yuz tutishidir”.

Ommaviy madaniyat miyosiga ko'ra, odatda, ikki xil – mahalliy va xalqaro ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, estrada xonandasining “yetti yoshdan yetmis yoshgacha” bo'lgan auditoriyaga mo'ljalab chiqqargan qo'shig'i barchaga birdek tushunarlari va yoqimli uslubda yaratildi, deylik. Unda yetti yoshli bolaga kerakli jihatlar ham, yetmishni qoralagan otaxonga taalluqli tomoni ham mavjud bo'ladi. Mana shu kabi omillar ommaviy madaniyat asirlari sonining ortib ketishiga sabab bo'lyapti, ayrim futurologlar buning natijasida fikrash, mustaqil qiyoslash kabi insoniy fazilatlar unutilishini bashorat qilishmoqda.

Insoniyat informatika, kibernetika va kosmonavtika sohasidagi ulkan yutuqlarga andarmon bo'lib, tobora yengil-yelplikka, o'yin-kulgiga oshuha bo'lib qolishini aksariyat G'arb mutaxassislar ommaviy madaniyat deb ta'kidlashmoqda. Endilikda mulohazakor ota-bobabolimiz kabi kichik yushmanha ham alohida e'tibor va diqqat bilan emas, balki pala-partish, naridan beri munosabatda bo'lishga o'rganib qolyapmiz. Chunki kundalik hayotimizda tanishib chiqishimiz shart bo'lgan axborot miqdori haddan ziyod ko'payib ketyapti. Buning natijasida miyamiz qabul qilayotgan fan-texnikaning ultra nurlari bizni ma'lum ma'noda og'ir mehnatdan bezdiryapti. Kerakli va keraksiz ma'lumotlar bazasiga ayanlib ulgurgan miyamiz uzlusiz axborot oqimini analiz-sintezlash jarayonida tolib qolib, tanamizning mehnatsevarlikka bo'lgan layoqatini keskin tushirib yuboryapti.

Kitob o'qimaslik, o'zining siyosiy-ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish ustida ishlamaslik, biqiq fikrash, qotib qolgan eski aqidalar komidan chiqib ketolmaslik va boshqa ayanchli holatlar tufayli ishlarmiz yengil-yelpi, xo'jako'rsinga qilingandek taassurot uyg'otaveradi. Aslida ham shunday. Bilimsizlik, tajribasizlik, mahorat taqchilligi bois yaxshi tushunmasdan qilingan ish, tabiiyki, kutilgan natijani bermaydi.

Ommaviy madaniyat ta'sirida odamlarda didsizlik va mas'uliyatsizlik muammosi yuzaga keladi. “Ko'ngilochar industriya” maqomini olgan jamiyatda chop etilayotgan hajviy, oldi-qochdi, intim voqeliklar, suratlar, turli qotilliklar, mashhur kishilarning ishqiy mojarolarini aks ettiruvchi “sariq matbuot”ning demokratiya niqobiда faoliyat yuritishi “ommaviy madaniyat”ning kengroq ildiz otishini amalda ta'minlayapti. Misol uchun, Amerika aholisi har 45 daqiqada televizor orqali 100 mingta qotillikni va har 14 daqiqada 300 mingta zo'rash bilan bog'liq jinoiy ish guvohi bo'lishi mumkin ekan.

Ommaviy madaniyat o'tgan asrning 60–90-yillarda ma'nан tuban, axloqan buzuq oqimlar – “xippi”lar, keyinroq “pank”lar, “skinxed”lar, “dolche-gabbana”lar misolida insoniyat uchun bemisl tashvish tug'dirgan bo'lsa, ularning XXI asrdagi ayni shu ko'rinishi mutaxassislar tilida “soxta madaniyat” deya talqin etilmoqda, ya'ni omma

e'tiboriga havola etilayotgan asarlar asl iste'dod va nozik did bilan kashf etilgan ijodi yangilik emas, balki auditoriyani shunchaki ushlab turish, yo'naltirish, ular orasida fikrsizlikni kuchaytirish bilan bog'liq sentimental asarlar bo'lib qolyapti, xolos.

Sentimentalizm XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropa va Amerika adabiyoti hamda san'atida yuzaga kelgan oqim: unda hissiyot insonning qimmatini, yaxshi yoki yomonligini belgilovchi asosiy me'yor sifatida talqin qilinadi, ta'sirchanlik, yig'loqilik uning asosiy quroli sanaladi. “Ommaviy madaniyat” qullari ommalashgan har qanday mahsulotni “eng yaxshi” deb qabul qilishi va unga erishish uchun ko'r-ko'rona ergashishi didsizlikning yaqqol ifodasi emasmi? Soxta madaniyat xalqning bir-biri bilan aloqasi uzilishinigina emas, balki o'z-o'zini chegaralab qo'yish singari fojalarga yetaklaydi. Televizor, kompyuter yoki radio qarshisida soatlab o'tirib, tong otishi va kun botishi kabi hodisalarini har kuni birdek kuzatuvchi odamlarning soni borgan sayin ortib ketyapti. Fanda buni mutaxassislar (ingil adibi Daniyal Defo yaratgan mashhur qahramon Robinzon Kruzo nomi bilan) “robinzonlashish” deya atashmoqda.

Odamlar g'oyaviy boshi berk ko'chaga kirib qolib, ortga qaytishning uddasidan chiqolmaydigan, qaytgan taqdirda ham yakkalanish, begonalashish “jazosi”ga giriftor bo'ladigan bunday madaniyat nihoyatda nisbilyashib ketadi. Uni o'ziga dastak qilib olganlar faqat ikki narsanigina tan olishadi: “yomon” va “yaxshi”ni. Dunyodagi barcha narsani, odamlarni, kasb-korni faqat shu jo'nmezonda o'chaydi. Buni amerikalik olimlar – E. Fromm, D. Rismen, E. Van den Xag, G. Markuze va fransiyalik mutaxassis E. Moren o'z ilmiy tadqiqotlarida, asarlarida bir necha yillar muqaddam bayon etishgan. Ayrim tadqiqotchilar “ommaviy madaniyat”ni – burjuyaning deformatsiyalangan shakli sifatida tushuntirishga urinyapti. Binobarin, undagi ko'plab xususiyatlar, ruhiy holat burjua jamiyatiga xos bo'lgan madaniyat bilan o'xshashlikni tasdiqlaydi. Faqat bugun burjua mexanizmi ommaviy axborot vositalari ko'rinishini olgan, xolos. Moliyaviy-siyosiy jihatdan gegemonlikka talpinayotgan davlatlar o'zining mafkuraviy xurujlari bilan xalqlarni “madaniy mustamlaka”siga aylantirishni ko'zlamoqda.

Kanalalik sotsiolog, o'zining “global qishloq” atamasi orqali butun dunyoga tanilgan Mak-Lyuyen “ommaviy madaniyat”ni idilliya yoxshatdi. Idilliya bu – tabiat quchog'idiagi tinch va osoyishta hayotni tasvirlovchi kichik she'riy asar, umuman olganda, Mak-Lyuyen uni g'am-anduhsiz, o'yin-kulgi, shodlik, maishatdan iborat hayot kechirish tarzi sifatida sharhlagandi.

Xulosa qilib aytganda, bunday utopik qarashlar, ya'ni ideal jamiyatning ilmga asoslanmagan tasviri, shuningdek, jamiyatni qayta qurishning noreal rejalaridan iborat asarlar (*tuzum*)ning ifodasi yoki umumiy nom olgan “ommaviy madaniyat”ni yoqlashga asoslarimiz yetar emas. Uning zararkunandalik jihatlarini esa istagancha sanash mumkin.

To'g'ri, Yer yuzida faqat bitta millat yoki elatga tegishli jihatlar bo'lishi mumkin, ammo yagona madaniyatni topish mushkul. Turli o'zgaruvchan, evolyutsiyaviy hamda inqilobiy jarayonlar ta'sirida madaniyatlar bir-biriga qorishib bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, barcha millat yoki xalqlarni ommaviy madaniyat niqobida “bir to'nga o'rash” hattoki globalashuv hodisasini tug'dirgan demokratiya ta'sirida ham hech qachon amalga oshmasligi kundek ravshan bo'lib qolmoqda...

Zohidjon XOLOV,
jurnalist

✓ E'ZOZ

Shogirdlar ustozi xonadonida

Yoshlar va keksa avlod o'tasidagi mushtaraklik jamiyat taraqqiyotida muhim o'rinni tutadi. Harbiy prokuratura organlari tomonidan bu boroda faxriylarning hayotiy saboqlarini o'rganishga hamda ularning tajribalarini yosh xodimlarni sadoqat ruhida shakllantirish faoliyatiga tatbiq etish ishlari alohida e'tibor qaratilmoqda.

Galdagi tadbir ham shu yo'nalishdagi ishlarning amaliy davomi bo'ldi.

Ustozlar bayrami arafasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi xodimlari tomonidan tizimda uzoq yillar turli lavozimlarda samarali xizmat qilgan ustozi – Farhod Omonov xonadoniga tashrif buyurildi.

Ochiq va samimiy muloqotda Farhod Omonov xizmat va hayot xotiralari bilan o'tqoqlashdi. Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalq xizmatida kamarbasta bo'lism haqida yosh xodimlarga tavsiyalarini berib o'tdi. Qahramonimizning dildagi gaplari va o'g'itlari yoshlarga, ayniqsa harbiy prokuratura organlaring yosh xodimlari e'tiboriga yetkazish maqsadida videotasvirga muhrlandi.

Shunday insonlar borki, butun umrini el-yurt xizmatiga baxshida etadi. O'z mehnati bilan xalq mehriga sazovor bo'lib, hurmat-e'tibor qozonadi. O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi faxriysi Farhod Omonov ham ana shunday jonkuyar va fidoyi insonlardan.

Ustozi. Bu so'zning tag zamirida qancha-qancha shogirdlarining qalbini zabit etgan teran tafakkur, mustahkam bilim, yuksak iste'dod, kamtarona fazilatga ega bo'lgan shaxs timсоли namoyon bo'ladi. Qolaversa, shu obro'-e'tiborga yetguncha mashaqqatlari mehnat qilingan. Farhod Omonov ham shunday sharafli yo'lni bosib o'tgan.

Uning xalq xizmatidagi mehnatlari ko'p bora munosib taqdirlangan. 2000-yilda II darajali "Shon-shara" ordeni bilan mukofotlangan.



Otabek XOLBOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining birinchi o'rinosari

OSOYISHTALIK

Osoyishtalik taraqqiyotning asosiy kafolati hisoblanadi.

Bu borada davlatimiz rahbari belgilab bergen vazifalarga asosan, Harbiy prokuratura organlari tomonidan qator amaliy tadbirlar olib borilmoqda.

Tungi profilaktik tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiysi"ning ijrosi doirasida Respublika Harbiy prokururasi bo'lim boshlig'i Dilmurod Hamroyev boshchiligidagi Yakkasaroy va Yashnobod tumanlarida Milliy gvardiyaning Toshkent shahri bo'yicha boshqarmasi harbiy xizmatchilarining hamda tumanlar qo'riqlash bo'limlari xodimlarining tungi vaqtida xizmat o'tash holati o'rganildi.

Bunda navbatchi va tezkor harakatlanish guruhlari o'z xizmat faoliyatini tegishli qonunchilik talabları asosida olib borayotganliklariga alohida e'tibor qaratildi.

Jarayonda xodimlarning tezkor harakatlanishi, boshqa tashkilotlar bilan o'zarlo hamkorligi, biriktirilgan texnika va boshqa vositalardan foydalanishlari darajasi sinovdan o'tkazildi.

Yakunda tungi xizmatni tashkil etish va o'tash masalalari borasida tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.



Adliya mayori Qudrat ERGASHEV,
Respublika Harbiy prokururasi
bo'lim harbiy prokurori

✓ MILLAT KO'ZGUSI

JAMIYATNI TIL RIVOJLANTIRADI



Bugun keng ko'lamli islohotlar qatori ma'naviy hayotimizda ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'tmishda millat fidoyilarini tomonidan qadrlanib, zamon zayli bilan keyinchalik siyosiy qarashlar ta'sirida o'zbek tilining mavqeyini pasaytirishga qaratilgan urinislarning ham guvohi bo'lganmiz. Shunga qaramay, xalqimiz o'z milliy tilini saqlab qolishga erishdi.

1989-yil 21-oktabr kuni qabul qilingan "Davlat tili to'g'risida"gi qonunga muvofiq, o'zbek tili davlat tili, deb e'lon qilindi. Ko'pchilik uchun kutilmagan bu yangilik millat fidoyilar uchun ona tilimizni rivojlantirishga zo'r imkoniyat va huquqiy asos bo'ldi.

"Xalq va armiya – yakdil" deganlaridek, o'tkazilayotgan islohotlar Qurolli Kuchlar kundalik faoliyatida ham o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktobrdagi PF-6084-son farmoni bilan tasdiqlangan 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga muvofiq, Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida davlat tilining qo'llanishini kengaytirish, ularning kundalik faoliyatida davlat tilidan to'g'ri va to'liq foydalanish, o'zbek tilidagi ilmiy asoslangan harbiy atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy harbiy atamalarning davlat tilidagi muqobilalarini yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash yuzasidan hamkorlikdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Qadim va boy umumturkiy harbiy atamalar tizimining tarixiy shaklini o'rganish, jahondagi ko'plab davlatlarda harbiy atamalar shakllanishi uchun asos vazifasini o'tagan so'z va birikmalarni aniqlab, munosiblarini tanlab olish, amalda qo'llanilayotgan harbiy atamalarning davlat tilidagi ilmiy asoslangan muqobilalarini, harbiy xizmatchi (xodim)larning davlat tilidagi murojaat shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash yuzasidan qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Mudofaa vazirligining markaziy apparatida tuzilgan ishchi guruhi tarkibi o'z faoliyatini yuritmoqda.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktobrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi "Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan mudofaa vazirining 2021-yil 26-iyulda 592-sonli, 2021-yil 15-oktobrdagi 841-sonli, 2022-yil 11-noyabrdagi 868-sonli buyruqlari, mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rnibosarining 2022-yil 28-fevraldagli 14/601-sonli talabnomasi qo'shinlarga yuborildi.

Unga asosan, hozirgi kunga qadar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslariga o'qitish va malaka oshirish markazi hamda ushbu markazning viloyatlardagi bo'limlarida harbiy okrug, harbiy qism va muassasalarning harbiy xizmatchi va Qurolli Kuchlar xizmatchilarini o'qib, tegishli sertifikatlarga ega bo'ldilar.

2023-yilda malaka oshirishga jalb qilinuvchi harbiy xizmatchi va Qurolli Kuchlar xizmatchilarining sonini 500 nafardan oshirish rejalashtirilgan.

Mudofaa vazirining 2023-yil 15-avgustdagli 9-sonli, 23-avgustdagli

10-sonli, 26-avgustdagli 11-, 12-sonli direktivalari ishlab chiqilib, unga asosan, Mudofaa vazirligining ayrim garnizonlarda harbiy xizmatchilar tomonidan murojaat etish va salomlashishning taklif etilayotgan tartibini "eksperiment" tarzida sinovdan o'tkazish bo'yicha vazifalar belgilangan. Bu esa Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan samarali ishlarning yana bir ko'rinishidir.

Qurolli Kuchlar xizmatchisi
Ahror ABDURAHMONOV,
mudofaa vazirining ma'naviy-ma'rifiy
ishlar samaradorligini oshirish,
davlat tili to'g'risidagi qonun
hujjatlariga rioya etilishini
ta'minlash masalalari bo'yicha
maslahatchisi

ATEROSKLEROZ ORGANLAR FAOLIYATINI IZDAN CHIQARADI



Ateroskleroz deb qon tomirlarining torayishi, qattiqlashishi natijasida organlarga qon va kislороднинг яхши yetib bormasligiga aytildi. Ma'lumki, yosh o'tgan sari tomirlar ichki devorida patologik o'zgarishlar natijasida yog' moddalari toshma ko'rinishida to'planib boradi.



Ushbu aterosklerotik toshmalarda biriktiruvchi to'qimaning o'sishi va kalsiy tuzlarining to'planishi hisobiga arteriya tomirlarining teshiklari asta-sekin torayib boradi. Og'ir holatlarda butunlay yopilib qolishigacha yetib boradi. Bu esa, o'z navbatida, kasallangan arteriya orqali qon bilan ta'minlanuvchi a'zo faoliyatini izdan chiqaradi. Ya'ni qon tomirining ichki devorlari torayishi bilan undan ma'lum vaqt ichida o'tadigan qon hajmi ham kamayadi va bu tomir qon bilan ta'minlaydigan a'zo qon orqali normadan kamroq oziq moddalar va kislород ола boshlaydi. Natijada a'zo o'z vazifasini to'liq bajara olmay qoladi, oziq moddalar yetishmasligi sababli esa asta-sekinlik bilan to'qimalar o'ladi va yemirilib boradi. Shunday vaziyatda ko'p hollarda arteriya teshigi tromb bilan, ya'ni quyuqlashib qolgan qon laxtasi bilan butunlay berkilib qolishi ham mumkin. Bunday jarayon tromboz deb ataladi. Trombozda ushbu arteriya oziqlantiradigan a'zoda keskin ravishda nekroz (*chirish*) jarayoni boshlanib ketadi.

RIVOJLANISH SABABLARI

Ateroskleroz ko'pincha 50–60 yoshdagи erkaklarda va 60 dan oshgan ayollarda uchraydi. Lekin kasallikning ancha oldin rivojlanish ehtimoli ham yo'q emas, bunga giperxolesterinemiya sabab bo'lish mumkin. Giperxolesterinemiya – bu qonda ortiqcha miqdorda xolesterin muddasining to'planishi. Ushbu modda kerakli miqdorda organizmda muhim rol o'yaydi. Aynan xolesterindan jinsiy gormonlar yaratiladi, bu modda o't suyuqligining ham asosi sanaladi. Yana D vitaminini sintezi ham unga bog'liq. Xolesterin hayvon yog'larida ko'p bo'ladi.

Sog'lam odam ko'p miqdorda hayvon yog'larini ist'emol qilsa, odatda ortiqcha xolesterin organizmdan chiqarib yuboriladi. Biroq ayrim insonlarda ba'zi sabablarga ko'ra organizmda ortiqcha zararli moddalar qolib ketadi. Bunga sabab masalan, nasliy moyillik, arterial gipertensiya (*yuqori qon bosimi*), gipodinamiya (*kamharakatlik*), qonning quyuqlashuvi, qandli diabet va boshqa omillar bo'lishi mumkin. Chekish va semizlik ham mazkur, kasallikka olib keladi. Chunki bunda ham qon tomirlari ichki yuzasini yog' bosib, ateroskleroz kasalligi rivojlanadi.

BELGILARINI QANDAY BILISH MUMKIN?

Tashqi ko'rinish orqali – bemor yoshiga qaraganda keksaroq ko'rindi, vazni ortib ketadi.

Ksantomalar – xolesterin terida sariq dog' ko'rinishida (*yunon. "ksantos" – sariq degani*) to'planadi. Odatda bunday dog'lar tirsak, qovoqlarda paydo bo'ladi.

Giperxolesterinemiya – qonda umumiyligi miqdori 5,2 mmol/l yoki 200 mg/dl (*mg %*)dan ortib ketadi. Kasallikning nasliy shaklida bu ko'rsatkich me'yordan 4-5 baravarga oshib ketishi kuzatiladi.

Tanuning qaysi a'zosi yoki qismi ko'proq zararlanganligiga qarab, ateroskleroz sabab bo'lgan kasalliklarni farqlash mumkin.

Aksariyat kishilar alomatlari ko'rinish bermagani sababli kasallikdan bexabar bo'lishadi. Aterosklerozni ilk bosqichlarda mustaqil aniqlashning aslo iloji yo'q. Hech bo'lmaganda, yilda bir marta organizmni to'liq tekshiruvlardan o'tkazib turmaslik oqibatida kasallik og'ir darajaga yetishi va yog' qatlamlari qon aylanishini to'sib qo'ygandagina, undan boxabar bo'lish mumkin.

O'rta va og'ir darajadagi ateroskleroz alomatlari aynan qaysi tomirlar zarar ko'rganiga qarab farqlanadi. Shifokorlarning so'zlariga ko'ra, tez-tez uchrab turuvchi ushbu xastalik birdaniga bir necha organ qon tomirlariga ta'sir qiladi.

Yurak-qon tomirlarida

Ko'krak qafasida bosim va noqulaylikni sezish mumkin. Og'riq orqa tomon, bo'yin, yelka, qo'l va tirsaklarga o'tishi ham ko'p kuzatiladi. Yana shuningdek nafas qisishi, aritmiya (*yurak urishi tezlashishi*), uyqusizlik va kuchli charchoq hissi ham paydo bo'ladi.

Bosh miya tomirlarida

Asosiy alomatlari – to'satdan qotib qolish yoki qo'l-oyoqlarda holsizlik, nutq chalkashishi, ya'ni tushunarsiz gap-so'z, vaqtincha ko'rish qobiliyatining sustlashishi, bosh aylanishi, yurganda noaniq qadam tashlash, kuchli bosh og'rig'i, hushdan ketish.

Qo'l-oyoq tomirlarida

Organizmning bu qismlaridagi arteriyalar qisqarsa, asosan harakat davomida og'riq va uvishish kuzatiladi.

Buyrak tomirlarida

Buyrak arteriyalaridagi yog' toshmalari buyrak yetishmovchiligi rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Uning asosiy belgilari: kuchsizlik, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynishi, juda tez yoki kam siyish, qo'l-oyoqlarda shish, fikrni jamlashdagi muammolar, teri qichishishidir.

NIMA MUMKIN-U, NIMA MUMKIN EMAS?

Aterosklerozda ovqatlanishning asosi – chekllov. Bemor yog' va xolesteringu qattiq to'yingan mahsulotlar – jigar, buyrak, seryog' go'sht, kolbasa, yog'li sut va shu kabilardan voz kechish lozim. O'simlik yog'lari va dengiz balig'ining yog'lari, yengil margarinlar, yong'oqlar, yog'siz sut mahsulotlari esa foydalı hisoblanadi. Yog'siz mol va parranda go'shti, yog'i olingan tvorog, haftasiga 2-4 tadan tuxum tavsiya etiladi. Ovqat tarkibida yog' ulushi kamayishi hisobiga quvvat kamayishining o'rnini qoplash uchun uglevodlar ko'proq iste'mol qilish tavsya etiladi. Ozuqa mahsulotlari, eng avvalo, sabzavot, ho'l meva, yong'oqlar, shuningdek donli va shunga yaqin mahsulotlarni ko'proq iste'mol qilish foydali.

Vitaminlar yetishmovchiligin kamayirish uchun kunlik me'yordan oshmagan miqdorda multivitaminli preparatlarni qabul qilish mumkin.

KASALLIKNI DAVOLASH

Ateroskleroz rivojlanishiga sababchi bo'ladigan omillarga qarshi harakatlar davolash asosini tashkil etadi. Bunda chekishni tashlash, gipodinamiyani bartaraf etish, jismoniy faoliytni oshirib, jismoniy mashqlar qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yana arterial bosim va qonda qand miqdorini nazorat qilish, rejim bilan ovqatlanish kerak. Shu qoidalarga rioxal qilinganda, qonda xolesterin miqdorini mo'tadillashtiruvchi maxsus dorilar ichish shart bo'lmaydi.

Ateroskleroz – sekin, yillar davomida rivojlanadigan kasallik. Bu kasallikda bemor faqat dorilar va muolajalar yordamida tuzalib ketaman, deb o'ylasa, xato qiladi. Chunki hech qanday dori qon tomirlarini asl holiga

qaytar olmaydi. Bunda bemor o'z sog'ligiga har tomonloma e'tibor berishi va hayot tarzini keskin o'zgartirishi kerak bo'ladi. Aslida bu kasallikka uchrashning o'zi bemorning o'tgan yillar davomida nosog'lom turmush kechirganidan dalolat beradi.

EFFERENT (SORBSION) TERAPIYA

Aterosklerozning murakkablashgan shakllarida lipid almashinuvini mo'tadillashtirish uchun efferent terapiyaning turli usullari qo'llanadi. Odatdagi muolaja samarasizligi va umumiyligi xolesterin miqdorining g'oyat yuqoriligi bunga ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

Muolajaning sorbsion usullarida maxsus apparat yordamida qon zararli moddalardan tozalanadi. Apparat bemor qonini so'rib olib, uni filtrdan o'tkazadi va yana qaytadan organizmga jo'natadi. Lekin bu usulning ta'siri bo'lishi uchun muolajalarni ko'p marotaba va uzoq muddat takrorlash talab etiladi.

JARROHLIK YO'L BILAN

Bu kasallikni jarrohlik yo'l bilan davolash ham mumkin. Operatsiya kasallikdan to'liq qutulish uchun emas, balki zararlangan tomir ozuqa bilan ta'minlaydigan a'zoning ahvolini yengillashtirish uchun qilinadi. Ya'ni bu usul kasallik sababini bartaraf qila olmaydi, lekin ateroskleroz asoratlarini birmuncha yumshatadi.

Qon ta'minoti buzilishiga barham berish uchun aorta, yurak arteriyalari, bosh miya, buyrak, oyoqlarda turli xil jarrohlik amaliyoti bajariladi. Jarrohlik amaliyotida rentgen apparati nazorat ostida tomirni teshish orqali kichik invaziv operatsiya – ballonli angioplastika, stentirlash va boshqalar qo'llaniladi. Yana undan tashqari ochiq jarrohlik operatsiyalari – protezlash, shuntlash, angioplastika ham qo'llaniladi.

Ayrim hollarda lipid almashinuvini mo'tadillashtirish uchun ingichka ichakning bir qismi olib tashlanishi mumkin. Yoki jigarni ko'chirib o'tkazish kabi jarrohlik ishlari bajariladi. Bunday aralashuvlarga xolesterin darajasining juda balandlashib ketishi va giperxolesterinemiyaning irsiy shakli sabab bo'ladi. Zero ularni konservativ terapiya bilan tuzatishning iloji bo'lmay qoladi.

XALQ TABOBATI USULLARI BILAN DAVOLASH

O'rmon yong'oqlari (*leshinalar*) va xurmoni muntazam iste'mol qilish ateroskleroz rivojlanishining oldini olishda yordam beradi.

Aterosklerozdan kelib chiqqan gipertoniyani davolash uchun asalga aralashirtilgan yong'oq 45 kun davomida 100 g.dan iste'mol qilinadi.

Bu kasallikda sarimsoqpiyoz qaynatmasi ham foydali. Bunda: 1 stakan suvg'a bir bosh sarimsoqni solib, 1 daqiqqa qaynatiladi, so'ng sovutiladi. Bu qaynatma kuniga 1-2 osh qoshiqdan ichiladi.

Yurak va tomirlarni sog'lomlashtirish uchun esa sarimsoqpiyoz nastoykasi tavsya etiladi.

U quyidagicha tayyorlanadi:

bir shisha aroqqa (0,75 l) 1 choy qoshiq qirilgan sarimsoqpiyoz solinadi va bir oy qorong'i joyda saqlanadi. Bir oydan so'ng dokoda suzib olinib, kuniga 3 mahal 40 tomchidan 30 kun ichiladi. Bir yildan keyin muolaja takrorlanadi.

200 g yangi karafs ko'kati 200 g asalga aralashirtiladi va 5 daqiqqa qaynatiladi. Bir hafta davomida kuniga uch mahal bir osh qoshiqdan ichiladi.

Choy o'rniiga chetan (*ryabina*) yoki bodrezak mevalari nastoykalarini ichish ham foydali. Bunda: 2 osh qoshiq quruq meva termosga solinadi. Ustidan 0,5 l qaynoq suv quyiladi, 2 soat tindirib qo'yilib, dokoda suziladi va kunda 2 mahal ichiladi.

G. HOJIMURODOVA tayyorladi.

Qora qarg'a o'ynasa, nima bo'ladi?

Bir zamonlar Buyuk Ipak yo'li tegrasida joylashgan, keyinchalik cho'lquvarlar va metallurglar diyori sifatida dong taratgan Bekobodning tabiatni o'ziga xos. Ayniqsa, yiliga o'rtacha 52 kun esuvchi kuchli shamolining ta'ifi butun Markaziy Osiyoga ketgan.

Eni 9–40, uzunligi 70–75 kilometrlik "Farg'ona darvozasi" (Xo'jand) orqali kirib keladigan bu shamol har doim xalq xo'jaligiga jiddiy zarar yetkazadi, odamlar asabini obdan egovlaydi. Negaki, tezligi qishda sekundiga 25–30, ba'zan 40–45 metrga yetadi, yozda 15–20 metr atrofida bo'ladi. Bir esganda ikki kundan besh kungacha tinim bilmaydi. Quturgan kezlari mevalarni beomon to'kadi, ekinlarni sindirib, nobud qiladi, tuproqning unumdon ustki qismini yalab ketib, hosildorlikni pasaytiradi. U ariq-zovurlari ko'mib yuborgan, vagonlar, mashinalar va simyog'ochlarni ag'darib, tomlarni uchirib ketgan paytlar ham ko'p bo'lgan.

Shu bois bekobodliklar biror ishga qo'l urishdan oldin shamolning ta'sirini albatta hisobga oladilar. Tomorqa va dala yumushlarini bajarish, ekinlarni parvarishlab, hosilni sarajomlab olishda ham uning "ra'yiga" qaraydilar. Masalan, ko'pincha shamol to'xtashi bilanoq yomg'ir yog'ishini, mabodo, u qibladan esa boshlasa, havo sovishini unutmaydilar va shunga yarasha taraddud ko'radilar. Ayni chog'da erta ko'klamdag'i qattiq shamol yerning tez qurishiga, kech kuzdagisi paxta ko'saklarining barvaqt ochilishiga xizmat qilishini ham yaxshi biladilar. Bu mahalliy aholining asrlar osha shakllangan tajriba va ko'nikmalaridan biri hisoblanadi.



Tabiat va inson o'tasidagi munosabatlarga oid bunaqa misollarni respublikamiz yoki dunyo miyisosida ko'plab keltirish mumkin. Shuning uchun ham ahli bashariyat azal-azaldan jonli va jonsiz tabiatni, nabotot va hayvonot dunyosi sir-asrorlarini bilishga qiziqqan. Shu zayl xalq astronomiyasi, kosmografiyasi, meteorologiyasi, taqvimi va agrometeorologik taqvim vujudga kelgan.

Zamonlar o'tgan sayin ajdodlarimiz iqlim va ob-havo o'zgarishi muayyan izchillikda va bir maromda ro'y berishini payqay boshlashgan. Garchi bu holatlarning tub sabablari va qonuniyatlarini aniq bilishmasa-da, tabiiy hodisalar takrorlanishi haqida muayyan tushunchalarga ega bo'lishgan va ulardan o'zları uchun tegishli saboqlar chiqarib olishgan. Astronomik va meteorologik kuzatishlar natijalarini jamlab, fasllar va oylarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashgan. Hatto parranda-yu darrandalar, mayda jonivorlar-u qurt-qumursqalarining xatti-harakati va qiliq'iga qarab, qay paytda va qanday vaziyatda yog'ingarchilik bo'lishi yoki tinishini, havo isishi yoki sovishini oldindan aytib berishgan. Bunday xulosalar tobora ko'payib, avloddan avlodga bebaho meros bo'lib qolgan.

Keling, shu o'rinda so'zimizning isboti sifatida ayrim misollarga murojaat etaylik:

- burga qutursa, asalari uyasidan chiqmasa, qaldirg'och past uchsa, qora qarg'a o'ynasa, ot xirillasa – ob-havo ayniydi;
- havoda chivin o'ynasa, qumursqa qanotlansa, o'rgimchak to'r to'qisa, chuvalchang yer yuziga, qisqichbaqa quruqqa chiqsa, qurbaqa qattiq qurillasla, ilon isinsa, qaldirg'och cho'milsa, qarg'a past uchsa, turna sayrasa, mushuk eshikni timdalasa, ot tepinsa, sigir sutini tortsa, bug'doy o'rganda o'roq ko'karsa, o'rimdan keyin ang'izdan suv chiqsa, ariq suvi ko'piqlanib oqsa, kunchiqar tarafdan yel essa, yulduzlar kichik ko'rinsa, kamalakning ikki uchi suvga "tushsa", kun qattiq isisa, shudring tushmasa, tutun yuqoriga o'rlamasaga – yomg'ir yog'adi;
- qushlar chug'urlashsa – havo ochilib ketadi;
- parrandalar pastlab uchsa, qarg'a qag'illasa, tuya o'yinga tushsa – qor yog'adi;
- it qorda o'ynoqlasa, ot yo'liga yotsa – bo'ron turadi;
- quyosh qizarib botsa yoki u botayotganida ufq alvon tusga kirsa – ertangi havo ochiq bo'ladi, yog'ingarchilik kutilmaydi.

Ko'rib turibsizki, odamzod hayotini tabiat va koinotdan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Inson mudom borliq og'ushida bo'ladi, undan ta'sirlanadi, undan zavq-shavq, ibrat va saboq oladi. Shu bois u bilan hisoblashib yashashga intiladi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

